

YANGI O'ZBEKISTON ARMIYASI – MAMLAKAT TAYANCHI, XALQIMIZ FAXRI!



VATANPARVAR

Gazeta 1992-yilning
24-iyunidan chiqa
boshlagan

2025-yil 4-iyul
№27 (3141)

MILLIY ARMIYAMIZ YANGI O'ZBEKISTONNING MUSTAHKAM QALQONIDIR!

www.mv-vatanparvar.uz



O'g'lim, desang osmonlarga
G'irof bo'lib uchgayman.
Chambil yurtida Alpomishga
Navkar bo'lib tushgayman...

M. YUSUF

IJTIMOIIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

t.me/mv_vatanparvar_uz
vatanparvar-bt@mail.uz
facebook.com/mudofaavazirligi



t.me/mudofaavazirligi
instagram.com/mudofaavazirligi
youtube.com/c/uzarmiya

AMIR TEMUR DAVRIDA

ME'MORCHILIK VA INNOVATSIYALAR

O'zbek harbiy ishi tarixi – yurt himoyasi, davlat barqarorligi va milliy armiya shakllanishining uzoq asrlik rivojlanish yo'lini o'rganuvchi muhim soha. Ushbu tarix milliy davlatchilik taraqqiyoti, harbiy san'at, yurt mudofaasi va buyuk qo'mondonlar faoliyati bilan chambarchas bog'liq. O'zbek xalqining harbiy an'analari esa qadimiy davrlarga borib taqaladi.


Harbiy san'at, odatda, xalqlarning hayot tarzi va ularning yetakchi yo'l boshchi va hukmdorlarining mahorati asosida shakllangan. Bu jarayon markazlashgan davlatchilik an'analari bilan ham uzviy bog'liq bo'lib, harbiy mahorat va tashkiliylik darajasi orqali namoyon bo'lgan.

Zamonaviy harbiy san'atda qurol-yarog' va jangovar texnikaning rivojlanishi natijasida hujum vositalari tobora murakkablashib, mudofaa strategiyalariga katta ta'sir o'tkazmoqda. Bugungi kunda raketalar, dronlar va kiberhujumlar kabi yangi texnologiyalar harbiy jarayonlarni tubdan o'zgartirib yubordi. Qadim zamonlarda esa harbiy mojarolarda hujum imkoniyatlari cheklangani uchun davlatlar xavfsizligini ta'minlashda asosiy urg'u mudofaa inshootlariga qaratilgan.

Eng qadimdan sust – qal'alar, devorlar, mudofaa xandaqlari va tabiiy mustahkam hududlar dushman hujumlariga qarshi turishda asosiy rol o'ynagan.

Shu sababli harbiy me'morlar turli qurilish materiallaridan foydalangan holda mudofaa devorlarini mustahkamlashga intilgan. Darhaqiqat, mudofaa inshootlari harbiy texnologiya va jangovar taktikalarning rivojlanish darajasini ko'rsatib beruvchi muhim ko'rsatkich bo'lgan. Devorlar shaklining o'zgarishi, ularning qalinlashuvi va himoya mexanizmlarining takomillashuvi jang usullari va hujum qurollarining o'zgarishi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan.

Tosh asridan boshlab shakllangan mudofaa inshootlari, qadimgi Turon hududida o'rta asrlarga kelib, sekin-astalik bilan kamayib borgan. Bu holat Ismoil Somoniyning **"Buxoro devorlari endi men bo'laman!"** degan shiorida o'z ifodasini topgan bo'lib, sultonning shaxsiy salohiyati va qudrati mudofaa inshootlaridan muhimroq o'rin tuta boshlaganini anglatadi. Keyingi davrlarda mudofaa devorlari qurilishida kuzatilgan o'zgarishlar aynan



shu jarayonning natijasi sifatida baholanadi.

X-XIII ASRLARDA Turon hududida barpo etilgan me'moriy yodgorliklarni tahlil qilar ekanmiz, bu tendensiya yaqqol namoyon bo'ladi. Turkiy imperiyalar davrida, ayniqsa Amir Temur hukmronligida, hujumkor – faol taktika yo'nalishi yanada kuchayganini ko'rish mumkin. Amir Temur kuchli va tashkilotli qo'shin yaratib, mamlakat barqarorligini ta'minlash uchun dushmanlarni o'z hududida jang qilishga majbur etgan. Uning yirik harbiy ekspeditsiyalari bunga yaqqol misol bo'la oladi. Shunga qaramay, Amir Temur zamonida harbiy mudofaa inshootlari qurilishi davom etgan.

Temuriylar davridagi qurilish faoliyatini ikki guruhga bo'lish mumkin:

1. Shahar va qal'alarni mustahkamlash maqsadida qurilgan mudofaa devorlari.

2. Muhim strategik ahamiyatga ega joylarni muhofaza qilish uchun qurilgan maxsus inshootlar.

Shahar va qal'alar qurilishidagi bunyodkorlik ishlari Shohruxiya va Samarqand shaharlari misolida ayniqsa, yaqqol namoyon bo'lgan. Bu bunyodkorlik nafaqat harbiy jihatdan, balki siyosiy va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash nuqtayi nazaridan ham katta ahamiyat kasb etgan.

SAMARQAND QAL'A DEVORLARI

Amir Temur poytaxti bo'lgan Samarqandni harbiy jihatdan mustahkamlashga alohida e'tibor qaratgan. Qal'a devorlari va mudofaa inshootlari qurilib, shaharning himoya qobiliyati mustahkamlangan. Hukmdor saroyi joylashgan ark o'z zamonasining eng ilg'or istehkom tizimiga ega bo'lgan.

Ark ikki qator mudofaa devori bilan o'ralgan bo'lib, uning qurilishi

uch bosqichda amalga oshirilgan. Birinchi bosqichda asosiy mudofaa tizimi shakllantirilgan, keyingi bosqichlarda esa devorlar ta'mirlanib, qo'shimcha xom g'isht devorlar bilan mustahkamlangan. Ichki devor paxsadan (*qalinligi 2,1 metr*), tashqi devor esa **40x27x7,9 sm** o'lchamdagi xomg'ishtlardan qurilgan bo'lib, ikki devor orasida **1,85 metr** masofa saqlangan. Devorlar aylana shaklidagi burjlarga tutashgan.

Temur arki harbiy muhandislikning barcha talablariga mos ravishda qurilgan. Ark shaharning eng baland nuqtasiga joylashtirilgan va ikki qator mudofaa devori bilan o'ralgan. Qal'aning burchaklarida dumaloq minoralar qurilgan bo'lib, ularga arkali darvozalar orqali kirish imkoni bo'lgan. G'arbiy qismda minoralar har **50-60 metrda**, shimoliy qismda esa har **40 metrda** joylashgan bu hududning tabiiy jihatdan himoyasizroq ekani bilan izohlanadi.

Ark qurilishida oziq-ovqat va suv ta'minoti muammosi ham yechim topgan. Dushman qamali davrida aholini suv bilan ta'minlash uchun yerostida odam bo'yi balandligida maxfiy ariq qurilgan bo'lib, u arkning shimoli-sharqiy burchagidan Bo'stonsaroy hududidagi buloqqa tutashgan. Bu suv tizimi maxsus burjlar va kuzatuv minoralari bilan himoya qilingan. Shimoli-sharqiy va shimoli-g'arbiy burchaklaridagi minoralar suv manbasini va Shayxzoda darvozasi orqali keluvchi yo'lni himoya qilish uchun qurilgan. Arkda uchta asosiy darvoza mavjud bo'lib, ular "Boburnoma"da Shayxzoda, Samarqand va Buxoro darvozalari deb ataladi. Shayxzoda va Samarqand darvozalari orasidagi masofa **350-400 metrni**



tashkil etgan. Buxoro darvozasi esa arkning g'arbiy qismida joylashgan.

Darvozalar atrofidagi burjlar dushman yo'lini to'sib qo'yish va otish qurollari bilan himoya qilish uchun qurilgan. Burjlar ustidagi maydonchalar toshotar va olovli o'qotar qurollardan foydalanish imkoniyatini bergan. Umuman olganda, ark darvozalari burjlar bilan kuchaytirilgan bo'lib, harbiy muhandislikning ilg'or yutuqlarini namoyon etgan. Arkning ichki tuzilishi ham maxsus reja asosida shakllantirilgan. Mudofaasi kuchaytirilgan shimoliy qism hukmdor va saroy ahli uchun mo'ljallangan bo'lsa, janubiy qismi dushman xavfi sharoitida shahar aholisini qabul qilish uchun mo'ljallangan bo'lishi mumkin.

SAMARQAND ARKI o'qotar qurollar endigina paydo bo'lgan, ammo hali keng tarqalmagan davrda qurilgan. Shu sababli qurilishda an'anaviy materiallar – xomg'isht va paxsadan foydalanilgan. Shu bilan birga yangi talablarga mos ravishda himoya tizimlari shakllantirilgan: burj va burchakli (*bastion*) tuzilishlar, keng tekisliklarda yoy shaklidagi himoya tizimi (*"rondelli" uslubi*) qo'llanilgan. Bundan

devori tashqi tomonga chiqib turuvchi yarim aylana shaklidagi burjlar bilan mustahkamlangan. Burjlarning diametri taxminan **5,6 metrni** tashkil etgan bo'lib, devorlarining qalinligi **1,7 metr** atrofida bo'lgan. Burjlarning ayrimlari xomg'ishtdan, ayrimlari esa pishiqg'ishtdan qurilgan. Bu qurilishda burj joylashgan qismning strategik ahamiyati e'tiborga olingani ehtimoldan xoli emas. Shahar devorlarining qalinligi esa **1,5 metrdan 2 metrgacha** bo'lgan. Mudofaa qurilishlari shaharning tabiiy relyefiga mos ravishda barpo etilgan.

UMUMAN OLGANDA, Shohruxiya yodgorligi mudofaa devorlari ham olovli o'qotar va toshotar qurilmalar ta'sirini hisobga olgan holda qurilgan. Ayniqsa, burjlarning ba'zilar to'liq pishiqg'ishtdan barpo etilgani bu davr harbiy muhandislik tajribasining yuqori darajada bo'lganini ko'rsatadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Amir Temur hukmronligi davrida harbiy me'morchilik o'zining mukammal muhandislik yechimlari, strategik rejalashuvi va arxitekturadagi innovatsion yondashuvlari bilan

nuqtalarda pishiqg'ishtdan foydalanish shunchaki resursni tejash yoki mavjud imkoniyatlarni hisobga olishdan ko'ra harbiy taktika va himoya strategiyasi bilan ham bog'liq bo'lgan. Bu davrda qurilgan istehkomlar oddiy mudofaa (*ya'ni faqat devor orqasida turib himoyalash*) uchun emas, **faol mudofaa**, ya'ni **hujum orqali himoya** taktikasi uchun mo'ljallangan. Ark va qal'a devorlarida joylashgan burjlar va minoralar dushmanga qarshi faol yog'diruvchi (*hujum qiluvchi*) qurollarni o'rnatish uchun qurilgan. Devorlardan oldinga chiqib turuvchi burjlar yoki bastionlar dushmanni yonboshdan o'qqa tutish imkoniyatini beradi bu faqat mudofaa emas, faol qarshilik usulini anglatadi.

Ichki infratuzilma va ta'minot tizimlari mukammalligi: Temur davrida shahar va arklar faqat tashqi himoya bilan cheklanmagan, balki uzoq muddatli qamallarga tayyorgarlik ham ko'rilgan. Ichki suv ta'minoti uchun maxsus yerosti kanallari, maxfiy ariqlar qurilgan. Samarqand arkidagi maxfiy suv yo'li bu boradagi yuqori muhandislik fikrlashining yaqqol namunasidir.

Harbiy texnologiyalarni hisobga olgan arxitektura: toshotar, olovli o'qotar qurilmalar va ilk o'qotar qurollar imkoniyatlari harbiy me'morchilikda inobatga olingan. Burj va minoralarning shakli, ularning devordan oldinga chiqib turishi, dushmanga yonlama zarba berish imkonini yaratgan. Bu Yevropada XVI asrda rivojlangan "bastion" usuli bilan o'xshashlikka ega bo'lib, Amir Temur davrida ham harbiy arxitekturada ilg'or fikrlar mavjud bo'lganini ko'rsatadi.


Mudofaa va shaharsozlik uyg'unligi: harbiy inshootlar shaharning bosh rejasi bilan uyg'un holda qurilgan. Arklar nafaqat harbiy nuqta sifatida, balki ma'muriy va siyosiy markaz vazifasini ham bajargan. Shaharning muhim darvozalari burjlar bilan mustahkamlangan bo'lib, shaharga kirish va chiqish yo'llari to'liq nazoratga olingan.

Amir Temur davri harbiy me'morchiligida mahalliy va global an'alar uyg'unligi: Temuriylar harbiy me'morchiligi mahalliy an'alarga tayanish bilan birga, dunyodagi zamonaviy harbiy tendensiyalardan ham xabardorlikni namoyon etgan. Bastionli burjlar, "rondelli" tizimidagi himoya, darvozalarni burjlar bilan himoya qilish kabi

elementlar Temur davri arxitekturasida o'z aksini topgan.

UMUMLASHTIRIB AYTGANDA, Amir Temur davri harbiy me'morchiligi arxitekturadagi muhandislik bilimlari, harbiy strategiya va qurilish texnologiyalarining mukammal uyg'unligi natijasidir. Bu davrda barpo etilgan qal'a va arklar nafaqat mudofaa funksiyasini, balki shahar madaniyati va davlat boshqaruvining muhim tarkibiy qismi sifatida xizmat qilgan. Mudofaa inshootlarining qurilishidagi mukammallik, resurslardan oqilona foydalanish, texnologik yangiliklarga ochiqlik va mahalliy an'analarni saqlab qolish xususiyatlari bu me'morchilikning eng muhim xususiyatlaridan hisoblanadi.

Surat KUBAYEV,
Tarix instituti
katta ilmiy xodimi,
tarix fanlari bo'yicha
falsafa doktori



tashqari, darvozalarning burjlar bilan maxsus mustahkamlanishi, kuzatuv minoralarining joylashuvi va maxfiy ichimlik suvi tizimi qurilishi bu davr harbiy me'morlarining ilg'or fikrlash va samarali muhandislik yechimlaridan dalolat beradi.

SHOHRUXIYA SHAHRI MUDOFAA TIZIMI

Shohruxiya shahri hududi qadim zamonlardan odamlar tomonidan o'zlashtirilgan bo'lsa-da, **XI-XII asrlarda** shahar maqomini olgan. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, yodgorlik **600×600 metr** o'lchamda aniq reja asosida qurilgan. Ammo keyinchalik Sirdaryoning yo'nalishini o'zgartirishi natijasida Shohruxiyaning arki butunlay yo'qolgan va bugungi kunda uning asl ko'rinishi haqida aniq fikr yuritish qiyin.

Shaharning mudofaa devorlarida asosan xomg'isht va paxsadan foydalanilgan bo'lsa-da, ayrim qismlar qurilishida pishiqg'isht ham ishlatilgan. Mudofaa

ajralib turadi. Bu davrdagi qal'a va arklar nafaqat harbiy maqsadlarga xizmat qilgan, balki siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etgan. Shu jihatdan harbiy me'morchilikning bir qancha muhim jihatlari namoyon bo'ladi.

Harbiy me'morchilikning tizimli asosda rivojlanishi: Samarqand arki va Shohruxiya kabi shaharlarda qurilgan mudofaa inshootlari ma'lum reja asosida barpo etilgan bo'lib, ularda mudofaa elementlarining o'zaro muvofiqligi va funksional maqsadlarga xizmat qilishini ko'ramiz. Masalan, ark va qal'a devorlari ikki qatordan iborat bo'lib, burjlar va kuzatuv minoralari belgilangan masofada joylashtirilgan. Burjlar va devorlarning o'lchamlari dushmanning hujum taktikalariga mos ravishda aniq hisoblangan.

Injenerlik va qurilish materiallari tanlovidagi pragmatizm: Amir Temur davrida qal'a va arklar qurilishida xomg'isht, paxsa va muhim



Mardi maydonlar



Bu tog'lar qanchalar go'zal-a? Bir qarashda osmonni kiftida tutib turganga o'xshaydi. "Anavi cho'qqiga chiqsam-u bir hovuch bulutni tutib olsam, uyimga ham olib ketardim, xonamni bulutlarga to'ldirib qo'yardim", deyman bizga yo'lboshchilik qilayotgan yo'riqchiga. "Ukam, shoirmisan, bulutlarni tutib bo'lmaydi-ku? Avval tog'larni zabt etaveraylik-chi, qolgani ham bir gap bo'lar", deb kulimsiraydi.

“BOSHIGA SALLA O'RAGAN CHOLLAR”

Erta tongdan jamoamiz bilan Angren shahridagi harbiy obyektlarga yo'l oldik. Bunaqa joylarga ilk safarim sababmi hayratim oshgandan oshib boraveradi. Mashina oynasidan atrofga termilaman, olislarda boshiga oq salla o'ragan chollardek tizilib turgan tog'lar xayolimni oladi. **“Boshiga salla o'ragan chollar...”** Tog'larga zo'r tashbeh topganday quvonaman.

Hali erib ulgurmagan qorlarni ko'rib, ko'nglimdan o'tgan o'y-xayollar bu. Mashina oynasini tushirib, yuzimga urilayotgan tonggi shabadaga ko'ksimni to'ldiraman. **“Seni sevaman, Vatan!”** deya pichirlayman. Yoshligimdan bir odatim bor, biror nimani yoki kimnidir yaxshi ko'rsam, ko'ngil kechinmalarimni baralla ovoz chiqarib aytolmayman. Ilk bor sevgan kezzlarimda ham, hatto onamga ham “Ona, sizni yaxshi ko'raman!” deb aytmaganman. Tortinchoqligim sabab rahmatli otamni qanchalar yaxshi ko'rishimni aytishga botinmaganman. Bugun yurtga muhabbatimni ham **“Seni yaxshi ko'raman, Vatan! Seni dunyolarga alishmayman”**, deya pichirlayapman.

Shoirman-u, ko'ngil ochib biror she'r ham qoralaganim yo'q. Muhabbat ko'ngilda bo'lsin, uni baralla aytish kerak emas, degan taskin ham bor. Keyin allambalolar umidida Vatan haqida qog'oz to'ldiruvchilar ham bir talay. Bundaylar sabab ko'nglingni ochishga ham iymanasan, go'yo sen ham shularning safida bo'lib qoladigandek. Xullas, o'zimning o'y-xayollarim bilan gazeta sahifalarini to'ldirish niyatim yo'q. O'zim bilan andarmon bo'lib, ikki soatlik yo'lni qanday bosib o'tganimni ham bilmabman.

Tog' tayyorgarligi o'quv mashqlar markazining Saridala



o'quv bazasiga yetib keldik. Havo shahar haroratidan 10-15 daraja salqin. Atrof tog'lar bilan o'ralgan, etagida daryo oqib turibdi. Shaharda tugab ulgurgan mevalarga bu yerda endigina ta'm ena boshlagan. Qaytadan bahor havosini his qilib, mashg'ulotlarga kirishdik.

Bizni III darajali serjant Odilbek Boboxonov kutib oldi. Harbiy xizmatchilarga yaratilgan shart-sharoitlar ko'ngildagidek. Yo'limni kutubxonaga buraman. Kitob varaqlab turgan yigitchaning mutolaaga oshnoligi e'tiborimni tortdi. “Kimni o'qiyapsiz?” deyman. Salom-alikdan so'ng Cho'lponning kitobiga ishora qildi. “Akademnashr” nashriyotida chop etilgan Cho'lponning saylanmasi.

– She'riyatni yaxshi ko'rasizmi?
– Ha, aka, o'zim ham she'rlar yozib turaman.

Gurungimiz cho'zilgandan cho'zildi, yaxshi suhbatdosh – ruhning ozig'i. Ayniqsa, ko'zidan

hali bolaligi ketib ulgurmagan ijodkor, uning o'smirlarcha qaynoq taassurotlari odamni hayratga soladi.

Harbiy xizmatchilarga berilgan bunday imkoniyatlarni ko'rib, o'zimning ham qaytadan askar bo'lgim kelib ketdi. Yo'riqchining ishorasi bilan dala mashg'ulotlariga otlandik.

DARYO YOQALAR EKANMIZ askarlar jo'rovovzda qo'shiq kuylab ketishdi. Ohangiga jo'r bo'lib, biz ham ergashdik. Daryo ancha katta ekan, suv oqimining shiddati ham o'ylaganimdan tezroq. Bu galgi mashg'ulot suv to'siqlarini yengib o'tish ekan. Daryoning shiddat bilan oqishiga qarab, yo'riqchi II darajali serjant Nurmuhammad Madrahimovga yuzlanaman:

– Askarlar hozir shu daryodan o'tishadimi?
– Albatta, – deydi u, – **harbiy xizmatchilarimizning kunlik**





YOXUD TOG'LARNI ZABT ETAYOTGAN ALPLAR



mashg'ulotlaridan biri, bizni oldinda bundan ham qiyinroq mashg'ulotlar kutib turibdi.

Daryo shiddati tobora oshar, o'zimni suv yoqasida ko'rishga ham qo'rqib, yuragimni hovuchlab turibman. Askarlar esa odatiy mashg'uloti emasmi, suvga birin-ketin sho'ng'ib bormoqda. Ularning ko'zlaridagi mag'rurlik, xotirjamlikni ko'rib, yengil tortdim. **Yurtimiz sarhadlari ishonchli qo'llarda ekaniga yana bir bor amin bo'ldim.** Suv ostidan o'tish, oqimga qarshi harakatlanish, mashg'ulotlari boshlandi.

Chinakamiga badantarbiya bilan shug'ullangan, chiniqqan alplar. **"Ota-bobonga balli, yashavor, shunqorlar!"** deya ularning harakatlarini kamera xotirasiga muhrlab olaverdim.

Mashg'ulotlar shu yerda yakun

topmadi, albatta, endigi maqsad qarshimizdagi ulug'vor cho'qqilarni zabt etish edi.

BU TOG'LAR QANCHALAR GO'ZAL-A? "Anavi cho'qqiga chiqsam-u bir hovuch bulutni tutib olsam, uyimga ham olib ketardim, xonamni bulutlarga to'ldirib qo'yardim", deyman bizga yo'l boshchilik qilayotgan yo'riqchiga. "Ukam, shoirmisan, bulutlarni tutib bo'lmaydi-ku? Avval tog'larni zabt etaveraylik-chi, qolgani bir gap bo'lar", deb kulimsiraydi.

Haqiqiy mashg'ulotlar, yo'riqchi aytgandek, endi boshlanayotgan ekan. Suv to'siqlarini yengib o'tish – hozir ko'rib hayratdan qotib qolganim – tog' mashg'ulotlari oldida xamir uchidan patir edi. Askarlar cho'qqilarga arqon yordamida tekis yo'lda harakatlangandek yugurib ketayotganini ko'rib, lol bo'ldim. Tog' etagiga yetib-yetmay tilim

osilib qoldi. **Yigitlarning shijoatini ko'rib, bunday lahzalarni boy berib qo'yish niyatim ham yo'q edi.** Ortidan ergashib, novvotday yaltirab turgan cho'qqilar qoshida qo'nim topdik. Yuqoriga qarasang, boshing aylanadi.

Askarlar o'z joylarini egallab, o'q otish mashg'ulotlarini boshlab yubordi. Quloqlar qomatga keldi. Yigitlar qoyalarda, tog' etaklarida joylashib olib, belgilangan vazifalarni bajarishga kirishdi. Yo'limiz tog' etagidan cho'qqilar tomon burildi. Quyosh ham qaynoq taftini bizdan ayagani yo'q. Yuzimizni buloq suviga chaygancha cho'qqilar tomon odimlaymiz. Bulutlarga tobora yaqin qolgandek xursand bo'laman. Yer sathidan 3 700 km yuqorida to'xtab, galdagi mashg'ulotlarga kirishdik.

CHO'QQILARDAN ARQON TASHLAB, burgutlardek

harakatlanayotgan yigitlarning yuragiga qoyil. Ular chinakam qahramonlar. **Aslida har bir o'zbek askariga "Jasorat" medali berilishi kerak, degan xayol o'tdi ko'nglimdan.** Men xayol qilishganda iymonib turgan cho'qqidan shamolday quvullab kelayotgan yigitlar, sizga olqishlar bo'lsin.

Vatan sizdek pahlavonlar qo'lida ekan, xalq hech nimani o'ylamay, orom oladi. Mashg'ulotlar tugab, harbiy baza tomon otlandik. "Osmonimiz musaffo", deya gap qo'shdim yonimdagi yo'riqchiga. Gapimni o'z ma'nosida tushundi chog'i, "Bu yerlarda osmon doim musaffo, tunlar yulduzlarga termilib, she'r yozaversangiz bo'ladi", dedi. Ozod yurtga she'rilar, qo'shiqlar yarashadi, albatta. Shunday yurt farzandi o'laroq, endiyam yozmasam, uyat bo'lar, deyman.

Muhammadali G'AFFOROV,
"Vatanparvar"

Malaka

KOMANDIR —

JANG MAYDONINING AQL-IDROKI



Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug qo'shinlarida vzvod komandirlari va ularning o'rinbosarlari ishtirokida navbatdagi o'quv-uslubiy yig'in bo'lib o'tdi. Unda asosiy e'tibor bo'linmalarda komandirlik va jangovar tayyorgarlikni yuqori darajada tashkil etish hamda uni samarali o'tkazish bo'yicha mas'ul shaxslarning kasbiy mahoratini yanada oshirish, ularning rahbarlik salohiyati va boshqaruv ko'nikmalarini mustahkamlashga qaratildi.

Umuman olganda, bu yig'in komandirlik san'atini yanada yuksaltirish, rahbarlik mahoratini mustahkamlash sari tashlangan dadil qadam bo'ldi va zamonaviy qo'shin boshqaruvida intellektual burilish nuqtasini yaratdi.

Yig'inda asosiy e'tibor harbiy bo'linmalarda komandirlikni faqat buyruq berish vositasi sifatida emas, balki ruhiy yetakchilik, strategik fikrlash, jangovar sharoitda tez va to'g'ri qaror qabul qilish, mas'uliyatni zimmasiga olish qobiliyati sifatida shakllantirishga qaratildi. Komandir faqat jang maydonida oldinda emas, balki aql-idrok bilan ham yetakchi ekaniga urg'u berildi.

Yig'in doirasida Mudofaa vazirligi tomonidan qo'shinlarning jangovar shayligini oshirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati ham tushuntirildi. Amaliy mashg'ulotlar va interaktiv muhokamalar orqali komandirlarning jangovar vaziyatlarda to'g'ri va tezkor qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish, zamonaviy jangovar taktikani puxta egallash bo'yicha yangi bilimlar berildi.

Shuningdek, yig'inda zamonaviy pedagogik yondashuvlar va innovatsion ta'lim texnologiyalari, xususan axborot-kommunikatsiya vositalaridan samarali foydalanish orqali interaktiv o'qitish shakllari namoyish etildi. O'quv-moddiy bazalardan samarali foydalanish




bo'yicha tajribalar almashildi. Ishtirokchilar o'z bo'linmalaridagi ilg'or yondashuvlar, tashkilotchilik usullari va real amaliyotda qo'llayotgan strategiyalari bilan o'rtoqlashdi.

Yig'inning ikkinchi va uchinchi kunlari ishtirokchilar Termiz poligonida 15 km piyoda marsh yurishni amalga oshirdi. Harakatlanish vaqtida zaharlangan hudud, muhandislik to'siqlaridan o'tish, pistirmaga tushganda dushman hujumini qaytarish, jarohatlanganlarni evakuatsiya qilish va qurollardan dastlabki otish mashqlarini bajardi. Mashg'ulotlar jarayonida harbiy xizmatchilarning jangovar mashinalarni boshqarish mahoratlari ham sinovdan o'tkazildi.

Mashg'ulotlar tunda ham davom etdi. Qorong'ilik qo'rquv va ilojiyatsizlik emas, balki matonatni yangilaydigan maydonga aylandi. Harbiy xizmatchilar tunda ham sergak, zehnlari tetik holda harakat qilishdi. Har bir mashqda nafaqat bilim, balki iroda, intizom va Vatanga sadoqat uyg'unlashdi. Shu orqali harbiy xizmatchilar o'z bilim va ko'nikmalarini boyitdi.

Muhimi, bu kabi tadbirlar qo'shinlar salohiyatini oshirish, zamonaviy harbiy tahdidlarga tayyor bo'lish hamda xavfsizlikni ta'minlash borasida muhim ahamiyat kasb etadi.

**III darajali serjant
Akbar AHMEDOV**
Termiz garnizoni



O'quv-uslubiy yig'in

RUHIY TOBLANISH MAKTABI

Insonlar tabiati turlicha bo'lganidek, ruhiy zo'riqishga qarshi chidamlilik darajasi ham har xil: kimdir og'ir kechinmalarga tez ta'sirchan bo'lsa, kimdir bu holatni matonat bilan yengadi. Aslida har qanday sohada faoliyat olib borayotgan inson xohlaydimi-yo'qmi ruhiy zo'riqish olishi mumkin. Bunday holat hayotiy quvvatingizni shunday tushirib yuboradiki, o'zingizni ma'naviy charchoq botqog'iga tushib qolgandek his etasiz. Eng yomoni, bu nafaqat ish unumdorligiga, balki sog'liqqa ham sezilarli ta'sir o'tkazadi.

Ana shunday holatda harbiy xizmatchi uchun og'irlik va mas'uliyat ikki karra ortadi. Chunki harbiy xizmat bu shunchaki kasb emas, balki ham jismonan, ham ruhan baquvvat bo'lishni talab etuvchi hayot tarzi. Bu soha harbiy xizmatchining irodasi, sabri va ichki tetikligini doimiy ravishda sinovdan o'tkazadi. Agar harbiy xizmatchi ruhiy barqaror bo'lsa, ruhiy zo'riqishga asir bo'lib qolmaydi. Balki aksincha – yuzma-yuz kelgan har qanday sinovni matonat bilan yengib o'tadi, o'z safdoshlariga tayanch bo'ladi, tahdidlar qarshisida ham xotirjamligini yo'qotmaydi. Chunki u biladi: dushman faqat qurol emas, balki zaif ruh, shubha va xavotir orqali ham hujum qiladi. Shuning uchun harbiy xizmatchi qalbidagi barqarorlik – uning eng kuchli va eng ishonchli quroli sanaladi.

Shu kabi haqiqatni harbiy xizmatchilar ongiga chuqur singdirish, jangovar sharoitda ularning ruhiy barqarorligini ta'minlash, ulardagi ichki chidamlilik va axloqiy tetiklikni yuksaltirish, shuningdek zamonaviy jang sharoitlarida qo'shinlarni psixologik xizmat ta'minoti bilan ta'minlash, harbiy psixologlar faoliyatini tubdan takomillashtirish maqsadida

Mudofaa vazirligi qo'shinlarida xizmat qilayotgan harbiy psixologlar bilan Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug tasarrufidagi "Termiz" umumqo'shin dala



poligonida "Jangovar vaziyatlarda psixologik ta'minotni tashkillashtirish" mavzusida o'quv-uslubiy yig'in tashkil etildi.

Uch bosqichda o'tkazilgan yig'inning birinchi kuni sohaning nazariy asoslariga bag'ishlandi. Qo'shinlarda amalga oshirilgan ishlar tahlil etildi, mavjud muammolar yuzasidan fikr almashildi, yechimlar muhokama qilindi.

Ikkinchi va uchinchi kunlari yig'in mashg'ulotlari "Termiz" umumqo'shin dala poligonida zamonaviy jang sharoitiga yaqinlashtirilgan yerosti mashg'ulot maydonida davom ettirildi. Ishtirokchilar u yerdagi axloqiy-ruhiy ta'minot shaharchasida barpo etilgan o'quv nuqtalari bilan tanishish jarayonida jangovar trening mashg'ulotlarini ham amalga oshirdi. Shu orqali real vaziyatdagi psixologik bosimlarga qarshi choralarni sinab ko'rdilar. Bu esa malaka va ko'nikmalarni yanada takomillashtirish hamda hamkasblar bilan tajriba almashish imkoniyatini yaratdi.

**III darajali serjant
A. AHMEDOV,**
Termiz garnizoni



Tayanch va tashabbus

FAOLIYAT VA INTIZOM E'TIBOR MARKAZIDA

Termiz garnizonida joylashgan harbiy qism madaniyat markazida Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug tasarrufidagi qo'mondonlik rahbarligida Serjantlar forumi bo'lib o'tdi. Unda Termiz, Kakaydi va Xayrobod garnizonlarida faoliyat olib borayotgan harbiy xizmatchilar, bosh serjant, bosh serjant yordamchilari va vzvod serjantlari hamda yo'riqchi-serjantlar ishtirok etdi.



Forumda Mudofaa vazirligi qo'shinlarida joriy etilgan bosh serjant va bosh serjant yordamchilari faoliyati, kichik bo'linmalardagi serjantlarning shaxsiy tarkib bilan ishlash, ularni boshqarish samaradorligi, harbiy jamoalarda harbiycha intizom, axloqiy-ruhiy holatni yaxshilash va harbiy xizmatchilarning tayyorgarlik darajasini oshirish bo'yicha faoliyatini yanada takomillashtirish, bu borada o'zaro tajriba almashish kabi masalalar ko'tarildi.

Shuningdek, tadbirda so'zga chiqqan qo'mondonlik shtab serjantlari o'z faoliyatidagi muhim jihatlariga to'xtaldi. Qo'mondonlik tasarrufidagi bo'linmalarning jangovar tayyorgarlik darajasini oshirish, kontrakt bo'yicha harbiy xizmatga kirib kelayotgan yosh kadrlarning harbiy soha bo'yicha bilim va ko'nikmalarni tez egallashiga ko'maklashish, kasbiy malakasini oshirish, jangovar-xizmat faoliyatida yo'l-yo'riq ko'rsatish borasida tajribalari bilan bo'lishdi.

Forum doirasida qo'shinlarda jangovar tayyorgarlikni yanada oshirish islohotlarida bosh serjant, bosh serjant yordamchilari va



vzvod serjantlari hamda yo'riqchi-serjantlarning o'rni va roli, psixologik barqarorlikni ta'minlashda jangovar trening va psixologik mashqlarning ahamiyati, o'quv mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish asoslari, bo'linmalarda sog'lom ma'naviy-axloqiy muhitni ta'minlash, harbiy xizmatchilarning vatanparvarlik tarbiyasini oshirish kabi mavzular bo'yicha ma'ruzalar tinglandi.

Xulosa qilib aytganda, mazkur forum – faqat so'z maydoni emas, balki saf, siymo va salohiyatni yanada taraqqiy ettirishga qaratilgan amaliy qadam sanaladi. Shu orqali serjantlarning o'z kasbiga bo'lgan faol va mas'uliyatli munosabatlarini yanada mustahkamlash esa yurtimiz tinchligi, armiyamiz salohiyati hamda kelajakdagi g'alabalar kafolatidir.

III darajali serjant
Akbar AHMEDOV,
Termiz garnizoni

Forum

G'OLIBLAR HARAKATI – ARMIYA SALOHİYATI

Mudofaa vazirligiga qarashli qo'mondonlikning Toshkent shahrida joylashgan harbiy qism madaniyat markazida yoshlar yo'nalishida amalga oshirilgan ishlarni sarhisob qilish, erishilgan yutuqlar tahlili va ijobiy tajribalarni ommalashtirish, istiqboldagi vazifalarni belgilab olish hamda 30-iyun – Yoshlar kuni munosabati bilan yosh harbiylar forumi o'tkazildi.

Forum avvalida qo'shinlar qo'mondoni polkovnik Jur'at Yaqubov so'zga chiqib, inson hayotida eng serqirra, orzu va harakatlarga to'la yoshlik davrining qanday yuksak e'tiborga sazovor ekanini, harbiy sohadagi islohotlar zahirida ham faol va tashabbuskor yoshlarni qo'llab-quvvatlash g'oyasi yotganini ta'kidladi. Shu asnoda mamlakatimizda yoshlarga berilayotgan keng ko'lamli imkoniyatlar va imtiyozlar haqida to'xtalib o'tdi.

Shundan so'ng qo'mondonlik yoshlar yetakchisining hisoboti tinglandi. Bu faqat raqam va faktlar emas, balki fidoyilikning ifodasi, yurak bilan bajarilgan xizmatlar tahlili bo'ldi. Kamchiliklar ham ochiq aytiladi. Chunki muvaffaqiyatga yo'l tan olish va xulosa chiqarishdir. Istiqbolda amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar esa yurt himoyasidagi har bir yoshning o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi, harbiy kasbning sharafiga hayotining mazmuniga aylantirishi yo'lida muhim islohotlar majmuasi ekani bilan ahamiyatli bo'ldi.

Yakunda qo'shinlar qo'mondonining buyrug'iga asosan,



xalqaro musobaqa va bellashuvlarda g'oliblikni qo'lga kiritgan, jangovar va ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlikda yuqori natijalarga erishgan yosh harbiy xizmatchilar ofarinnoma (*Behbudiy ta'rif*) va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi.

Tadbirning badiiy qismida harbiy orkestr jamoasi va estrada xonandalarining Vatanni madh etuvchi kuy-qo'shiqlari barchaga xush kayfiyat ulashdi.

Bu kabi bayram tadbirlari bo'linmalarda harbiy intizomni mustahkamlash, yoshlarni ilg'orlikka chorlash, belgilangan jangovar xizmat vazifalarini a'lo darajada bajarishga dasturilamal bo'lib xizmat qiladi.

TOQQQ matbuot xizmati

Chegara qo'shinlarida

YOSHLAR FORUMI KO'TARINKI RUHDA O'TDI

Mamlakatimizda o'tkazilgan "Yoshlar oyligi" doirasida Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari harbiy qismlaridagi Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkilotlari yetakchilarining navbatdagi forumi bo'lib o'tdi.

"Yoshlar – Yangi O'zbekiston kelajagining bunyodkori" shiori ostida o'tkazilgan mazkur uch kunlik forumning dastlabki kunida hududlarda g'oliblikni qo'lga kiritgan harbiy qismlar jamoalari o'rtasida "Ajdodlar izidan" intellektual o'yinining qo'mondonlik bosqichi o'tkazildi. Yoshlarni nafaqat

rukni ostida tasvirga olingan "Bahodir Yalangto'sh" filmi tomoshasi ham ishtirokchilar uchun tarix va bugunni bog'lovchi taassurotlarning mantiqiy davomi bo'ldi.

– Shu uch kun davomida ishtirokchilar bilan ko'p yo'nalishlarda fikr almashildi, ularning ish faoliyatlarini yanada jadallashtirish

o'tkazilgan mazkur uchrashuvda Chegara qo'shinlari qo'mondoni, ustoz faxriylar, muddatli harbiy xizmatchilar, chegaraoldi hududlaridagi "Yosh chegarachilar" klublari a'zolari, shuningdek yosh harbiylarning ota-onalari ishtirok etdi.

Dastlab qo'shinlar qo'mondoni so'nggi yillarda sohada amalga

Tadbir davomida "Ajdodlar izidan" intellektual musobaqasi hamda "Eng ilg'or boshlang'ich tashkilot yetakchisi" ko'rik-tanlovlari g'oliblarini taqdirlash jarayonlari ham bo'lib o'tdi.

Shundan so'ng jangovar-xizmat faoliyatida yuqori natijalarga erishgan bir guruh



mantiqiy, balki strategik fikrlashga o'rgatuvchi ushbu musobaqa davomida ishtirokchilar o'z aql-zakovatlari, o'tkir zehni va kitobxonlik madaniyatini namoyon etdi.

Forumning ikkinchi kunida harbiy qismlardagi Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkilotlari yetakchilari o'rtasida "Eng ilg'or boshlang'ich tashkilot yetakchisi" ko'rik-tanlovining respublika bosqichi o'tkazildi. Mazkur jarayonda amalga oshirilgan ishlar sarhisob qilinib, yetakchilarning natijalari, ularning bilim va salohiyatlari sinovdan o'tkazildi. Shuningdek, yoshlarda vatanparvarlik, mas'uliyat va daxldorlik hissini yanada kuchaytirish borasida kelgusida amalga oshirilishi zarur bo'lgan ustuvor vazifalar belgilab olindi. Shu kuni ishtirokchilar Chegara qo'shinlari muzeyida ham bo'lib, uning yangilangan qiyofasi bilan yaqindan tanishdi. "Tirik tarix"

yuzasidan tegishli tavsiyalar berildi. Qolaversa, eng ilg'or yetakchilar tajribalari bilan o'rtoqlashib, barchaga namuna bo'ldi, – deydi kapitan Rasul Tojiboyev.

Forum yakunidagi eng yorqin taassurotlarga boy tadbir, shubhasiz, "Qo'mondon va yoshlar" uchrashuvi bo'ldi. Videoselektor shaklida



oshirilayotgan islohotlar, shu jumladan yosh harbiy xizmatchilar va ularga qaratilayotgan e'tibor, yaratilayotgan shart-sharoit hamda qulayliklar xususida to'xtalib o'tdi. Samimiy muloqot tarzida kechgan uchrashuv davomida yoshlar ham o'z fikr-mulohazalarini bildirib, turli savollar bilan murojaat etdi.



yosh harbiylarning ota-onalariga sadoqatli va vatanparvar farzandlarni voyaga yetkazganlari uchun minnatdorlik bildirilib, Chegara qo'shinlari qo'mondonining tashakkurnomalari topshirildi. Kechagina farzandini katta hayotga yo'llagan ota-onalar bugun ularning kamolini ko'rib, nihoyatda xursand bo'ldi.

Albatta, yorqin taassurotlar va yodda qolarli onlarga boy tarzda o'tgan forum Chegara qo'shinlaridagi O'zbekiston yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti yetakchilarining kelgusidagi ish faoliyatlarini muvofiqlashtirishga hamda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini yanada oshirishga xizmat qilishi shubhasiz.

Mayor
Farida BOBOJONOVA
DXX Chegara qo'shinlari



“Jadidlarning ma'naviy qahramonligi” tanloviga

QALAM VA QUROL:

JADIDLAR VA BOSMACHILAR KURASHI SABOQLARI

XIX asrning ikkinchi yarmi–XX asr boshlarida musulmon Sharqida, xususan Turkiston mintaqasida ijtimoiy-ma'naviy va siyosiy inqiroz sharoitida vujudga kelgan jadidlik harakati o'z zamonasining dolzarb ehtiyojlaridan kelib chiqqan. Ushbu harakatning shakllanishiga bir nechta ichki va tashqi omillar sabab bo'ldi.

Jadidlik harakatining vujudga kelishida birinchi navbatda tashqi omillar muhim rol o'ynadi. Jumladan, buyuk geografik kashfiyotlar, sanoat inqilobi va Yevropa sivilizatsiyasining tez sur'atlar bilan rivojlanishi natijasida Sharq bilan G'arb o'rtasidagi ilmiy, texnologik va harbiy tafovut keskin kuchaygan edi. G'arb davlatlari tomonidan dunyo bo'ylab olib borilgan mustamlakachilik harakati musulmon Sharqini, jumladan Turkistonni ham bevosita o'z domiga tortdi.

Rossiya imperiyasining bosqinchilik siyosati tufayli 1865–1876-yillar davomida Qo'qon xonligi, Buxoro amirligi va Xiva xonligi kabi mustaqil tuzilmalar o'z suverenitetidan mahrum bo'ldi. Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilib, ruslashtirish siyosati boshlangan edi. Bu jarayon turkiy-musulmon elitesini milliy o'zlikni asrashga undadi. Ismoil Gaspirali boshchiligidagi Qrim jadidchiligi, Usmonlilar imperiyasidagi Tanzimat hamda Misrda Muhammad Ali islohotlari Turkistondagi ziyolilarga kuchli mafkuraviy ta'sir ko'rsatdi. Bosma matbuot va zamonaviy aloqa vositalari orqali dunyodagi islohotlar haqida xabardorlik ortib bordi. Bu esa Turkiston ziyolilarining o'z jamiyatini modernizatsiya qilish haqidagi g'oyalarini mustahkamladi.

Jadidlik harakatining kuchayishiga ichki ijtimoiy-ma'naviy inqiroz ham turtki bo'ldi. Mavjud ta'lim tizimining qoloqligi – maktab va madrasalarda asosan diniy fanlar o'qitilar, dunyoviy bilimlar esa deyarli o'rganilmas edi. Ta'lim usullari yodlashga asoslangan

undagan asosiy sabablar qatorida turadi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat singari jadidlar ayollarni o'qitish, ularning jamiyatdagi rolini oshirish tarafdori edi. Ijtimoiy tengsizlik va ma'muriy zolimlik, ayniqsa rus hukmronligiga xizmat qilgan mahalliy amaldorlarning poraxo'rliigi ham xalq noroziligini kuchaytirgan edi. Diniy doiralarning turg'unligi – ortodoks ulamolar har qanday yangilikka bid'at sifatida qarar, islohotga qarshi chiqardi. Jadidlar bu holatni tanqid qilar va “islom aslida taraqqiyot dinidir” degan g'oyani ilgari surardi.

Bosmachilik harakati XX asr boshlarida, ayniqsa 1916-yilgi qo'zg'olon, 1917-yilgi inqilob va sovet hokimiyatining o'rnatilishi ortidan kuchaygan qurolli qarshilik harakati bo'lib, hozirgacha turlicha baholanib kelmoqda. Tarixiy adabiyotlarda ushbu harakatga nisbatan ikki qarama-qarshi yondashuv mavjud: biri uni “reaksion, qurolli banditizm” sifatida talqin qilsa, ikkinchisi esa uni milliy-ozodlik harakati, mustamlakachilikka qarshi tabiiy javob deb baholaydi.

Bosmachilik harakati XX asr boshlarida, ayniqsa 1917-yildan keyingi inqilobiy beqarorlik davrida yuzaga kelgan va sovet mustamlakachilik siyosatiga qarshi yo'naltirilgan qurolli qarshilik harakati sifatida tarixda muhim o'rin tutadi. Bu harakatga nisbatan tarixiy manbalarda turlicha baholar mavjud. Sovet davri tarixshunosligi bosmachilarni “aksilinqilobchilar” va “banditlar” sifatida talqin qilgan bo'lsa, mustaqillikdan keyingi yondashuvlar ularni milliy ozodlik g'oyasi bilan yo'g'rilgan xalq harakati sifatida baholashga intilmoqda.

Bosmachilik harakatining shakllanishiga bir vaqtning o'zida tashqi va ichki omillar majmuasi ta'sir ko'rsatgan.

TASHQI OMILLAR ICHIDA, eng avvalo, sovet hokimiyatining repressiv siyosati alohida o'rin tutadi. 1917–1920-yillar oralig'ida sobiq mustaqil hududlarda, xususan Buxoro va Xiva xonliklarida milliy siyosiy tuzilmalar tugatilib, ularning o'miga markazdan boshqariluvchi sovet respublikalari joriy qilindi. Yer-suv islohoti, majburiy soliq siyosati kabi choralar mahalliy aholining iqtisodiy manfaatlariga zid bo'lib, ularning sovetlarga nisbatan noroziligini kuchaytirdi. Milliy o'zlik va an'anaviy madaniyat tahdid ostida qolgan bir paytda rus bosqinchilari tomonidan amalga oshirilgan kamsituvlar va zo'ravonliklar aholi orasida bosqinchilarga nisbatan dushmanlik

kayfiyatini kuchaytirdi va qurolli qarshilikka turtki berdi.

ICHKI OMILLAR ESA bu harakatning mahalliy ijtimoiy sharoitlar bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi. Avvalo, 1916-yilgi “Chiqaruv” buyrug'i asosida musulmon aholi vakillarining Rossiya armiyasiga safarbar qilinishi yuzasidan yuzaga kelgan ommaviy norozilik va qo'zg'olon Turkiston jamiyatidagi chuqur ijtimoiy qarama-qarshilikni ochiq namoyon qildi. 1917-yildan so'ng siyosiy bo'shliq paydo bo'lib, bu turli kuchlar o'rtasida raqobat va nizolarga zamin yaratdi.

Bosmachilik harakati keng hududlarga tarqalgan bo'lsa-da, uning lokal xarakteri va markaziy rahbariyatning yo'qligi uning tizimli milliy harakatga aylanishiga to'sqinlik qildi. Yetakchilar orasidagi farqli qarashlar, masalan, Madaminbekning sovetlar bilan vaqtincha kelishishga moyilligi, Ibrohimbekning esa mutlaq qarshilik pozitsiyasi bu harakatni ichki ziddiyatlarga olib keldi. Shu sababli harakat yirik ijtimoiy tayanchga ega bo'lishiga qaramay, siyosiy jihatdan markazlashmagani, yetarli tashkiliy tayyorgarlikning yo'qligi, ichki xoinliklar va sovet kuchlarining harbiy ustunligi sababli 1930-yillarning boshlariga kelib butunlay bostirildi.

Shunga qaramay, bosmachilik harakati xalq xotirasida milliy mustaqillik, diniy erkinlik va madaniy qadriyatlar himoyasi yo'lidagi kurash timsoli sifatida saqlanib qolgan. Mustaqillikdan keyingi tarixshunoslik bu harakatga nisbatan yangicha yondashuvlarni shakllantirmoqda. Endilikda bosmachilar harakati xalq irodasining, diniy-madaniy merosni asrash istagi va mustamlakachilikka qarshi tabiiy qarshilikning ifodasi sifatida qayta baholanmoqda.

Jadid adabiyotida bosmachilik harakatiga nisbatan baholar turlicha bo'lgan bo'lsa-da, XX asrning 20-30-yillarida xorijda faoliyat yuritgan jadid ziyolilari tomonidan bu harakat tobora ijobiy, hatto milliy-ozodlik kurashi sifatida talqin qilina boshlagan. Ayniqsa, Berlinda chop etilgan “Yosh Turkiston” jurnalida bosmachilik harakatiga berilgan tahliliy baholar uni nafaqat Sovet hukumatining zulmiga qarshi chiqish, balki xalqning tabiiy va tarixiy irodasi sifatida ko'rishga asos bo'lgan.

“Yosh Turkiston” jurnalining 1930-yilgi sonlarida chop etilgan maqolalardan birida Abdulvahob O'qtoy (*Janay*) qalamiga mansub “Bosmachilik to'g'risida” sarlavhali tahlil e'tiborga molikdir. Unda muallif avvalo “bosmachi” atamasining o'zi haqida mulohaza

yuritadi. Unga ko'ra, bu so'z sovet propagandasi mahsuli bo'lib, aslida Turkistonning mustamlakachilik siyosatiga qarshi chiqqan ilk ixtilolchiligini obro'sizlantirishga xizmat qilgan. Qiyoslash tariqasida ingliz konservatorlar partiyasining ilk nomi bo'lmish “vega” so'zining ham “to'polonchi” ma'nosidan “davlat tartibini saqlovchi” ijobiy ma'noga o'zgargani eslatiladi. Xuddi shunday, “bosmachi” so'zi ham vaqt o'tishi bilan Turkiston xalqlari ongida “mustaqillik kurashchilari” ma'nosini anglatadigan muqaddas timsolga aylangani ta'kidlanadi.

Muallif sovet hukumatining Turkistondagi vakillari – Kolesov, Parshin, Parfilov, Vadyayev kabi shaxslarning o'tmishidagi jinoyatlari, axloqiy buzqligi va siyosiy yolg'onlari orqali “kommunistik tuzumning asl basharasi”ni fosh etadi.

Maqolada Farg'ona vodiysida bosmachilik harakatining kuchli tus olishi aynan sovetlarning iqtisodiy zo'ravonligi – paxta siyosati, soliq siyosati, yerlarni tortib olish va rus muhojirlarini joylashtirish siyosati bilan bog'lanadi. Ayniqsa, dehqonlarning paxta majburiyati ostida ezilishi va o'z mahsulotlarini erkin sotish huquqidan mahrum bo'lishi xalq orasida sovetlarga nisbatan “to'xtovsiz dushmanlik kayfiyati”ni kuchaytirgani ko'rsatiladi.

“Yosh Turkiston”dagi pozitsiyaga ko'ra, bosmachilik Turkistonda sovet hokimiyatining soya tusidagi natijasidir. U sovet siyosatining bosqinchilik va xalq irodasiga zid xatti-harakatlaridan vujudga kelgan zaruriy oqibat sifatida ko'riladi. “Bosmachi”lar esa sovetlar tomonidan qonuniylikdan mahrum etilgan, ammo o'z milliy huquqlarini tiklashga intilayotgan xalq vakillari sifatida e'tirof etiladi.

MUSTAFO CHO'QAY – Jadidlik harakatining yetuk namoyandalaridan biri sifatida o'zining jurnalistik va siyosiy faoliyatida bosmachilik harakatiga ijobiy va hamdardlik ruhida yondashuvi bilan ajralib turadi. Uning 1933-yili “Yosh Turkiston” jurnalida e'lon qilingan “Bosmachilik (1918–1933)” nomli maqolasi nafaqat tarixiy voqealarni qayd etuvchi hujjat, balki bosmachilik harakatini milliy-ozodlik kurashi sifatida asoslab beruvchi mafkuraviy manifest sifatida baholanishi mumkin.

Maqolada Cho'qay avvalo shuni ta'kidlaydiki, bosmachilik harakati haqida sovet matbuotida turli yillarda turlicha baholar berilgan. Bolsheviklar dastlab bu harakatni ma'lum ijtimoiy sharoitlar mahsuli sifatida tan olgan bo'lsa, keyinchalik uni “xorijiy kuchlar tomonidan uyushtirilgan banditlik”



bo'lib, tahliliy tafakkurni rivojlantirmas edi. Bu holat o'z navbatida ilmfan taraqqiyotining to'xtashiga olib kelgan. Ayollar mavqeyining pastligi, savodsizlik va turmushdagi erkinlik cheklanishi kabi masalalar jadid ziyolilarini jamiyatni uyg'otishga

sifatida ko'rsatishga uringan. Cho'qay bu ikki yondashuvni solishtirib, ayniqsa Georgiy Safarov, Sokolov, To'ror Risqul o'g'li kabi sovet tarixchilari tomonidan yozilgan ilk asarlar va maqolalarga tayangan holda boshmachilik harakatining haqiqiy ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy sabablari haqida fikr yuritadi.

Unga ko'ra, boshmachilik harakatining ilk boshlanishi 1918-yil fevralda Ho'qand muxtoriyati bolsheviklar tomonidan tugatilganidan keyin yuz bergan. Bu voqea milliy g'ururni tahqirlash, mahalliy hukumatning qurolsizlantirilishi va erkinlik umidlarining barbod bo'lishi tarzida qabul qilingan. Aynan shu paytda boshmachilik "siyosiy mujodala" sifatida yuzaga chiqqan.

Maqolada Cho'qay sovet hukumatining Turkiston xalqlariga nisbatan olib borgan siyosatini keskin tanqid qiladi. Ayniqsa, u Turkiston bolsheviklari va rus bolsheviklari o'rtasidagi siyosiy ixtiloflarga e'tibor qaratadi. To'ror Risqul o'g'lining yozishicha, markaziy rus kommunistlari Turkiston xalqini "iqtisodiy jihatdan kuchsiz" deb hisoblab, hatto ularning tabiiy ravishda "yo'qolib ketishi" kerak, degan fikrni ilgari surgan. Bunday kamsituvchi qarashlar sovet tuzumining asl niyatini ochib beradi va boshmachilik harakatining xalq ongi va noroziligi negizida shakllanganini tasdiqlaydi.

Maqola yakunida Mustaf Cho'qay boshmachilikni **"milliy istiqlol bayrog'i ostida halok bo'lgan kurashchilarning harakati"** deb ataydi. U bu harakatni oqlashda siyosiy muvaffaqiyatga yetishmaslikni sabab emas, balki tarixiy vazifani bajarish uchun qilingan milliy harakat sifatida ko'radi.

Jadidlik adabiyoti boshmachilik harakatini faqat idealistik nuqtayi nazardan emas, balki uning murakkab, ziddiyatli, ko'p qirrali voqelik sifatidagi mohiyatini ham yoritgan. Bu holat ayniqsa Mirzo Azmiy taxallusi bilan e'lon qilingan xotiraviy maqolada yaqqol ifodalangan. "Yosh Turkiston" jurnalining 1933-yil 41-sonida chop etilgan maqola boshmachilik harakati ichidagi liderlar o'rtasidagi kelishmovchiliklar, fitnalar va harakatning zaiflashuviga olib kelgan omillarni milliy og'riq bilan tilga oladi.

Muallif boshmachilik harakatini oqlagan holda harakat yetakchilarining – Ergash qo'rboshi, Muhammad Aminbek, Xolxo'ja, Shermuhammadbek o'rtasidagi ittifoqsizlik, shaxsiy adovatlar va ishonchsizliklar harakatning eng katta zaif nuqtasi bo'lganini ochiq tan oladi. Ayniqsa, Muhammad Aminbekning fojiali o'limi tafsilotlarini tafsirlar ekan, bu voqea sovetlar tomonidan ongli ravishda qo'zg'atilgan ichki fitna, ya'ni boshmachilar orasiga adovat urug'ini ekish siyosati natijasi ekanini ko'rsatadi.

Mirzo Azmiy, shuningdek, boshmachilar orasida sovetlar bilan murosaga bormoqchi bo'lgan oqimlar (masalan, Muhammad Aminbek) bilan radikal, qat'iy qarshilik yo'lini tutganlar o'rtasidagi tafovutlarni ham aniq ko'rsatadi. Bu tafovutlar nafaqat siyosiy qarashlar, balki strategik yondashuvlar borasidagi chuqur ixtilof edi. Muhammad Aminbekning

sovetlar bilan shartli yarashuvga borgan harakati dushman tomonidan xiyonat bilan yakunlanadi. Aynan mana shu yerda muallif sovetning ayyorona siyosatini fosh qiladi – ular milliy liderlar orasiga fitna solish, yolg'on axborot tarqatish, ishonchni izdan chiqarish orqali boshmachilik harakatini ichkaridan yemirishga erishgan.

SHU BILAN BIRGA, Mirzo Azmiy maqolada o'z maqsadini aniq belgilaydi: u harakatni fosh qilish emas, balki dardli o'z-o'zini tanqid orqali tarixiy xatolardan saboq olishga da'vat etadi. Jumladan, u o'tmishdagi xatolarni eslash – ularni takrorlamaslik yo'lini ochadi, degan fikrni ilgari suradi. Bu Jadidlik tafakkuriga xos, tanqidiy-ma'rifiy pozitsiyaning aniq ifodasidir.

Mirzo Azmiy maqolasi boshmachilik harakati tarixini romantik yoki faqat

qahramonlik ruhi bilan emas, balki ichki tanqid, real siyosiy tahlil va og'riqli xotiralar orqali tasvirlaydi. Bu maqola Jadidlik adabiyotining o'ziga xos yondashuvi – siyosiy-hissiy sadoqat bilan birga ijtimoiy tanqidni uyg'unlashtirish uslubining yorqin namunasi bo'lib xizmat qiladi.

"Yosh Turkiston" jurnalida e'lon qilingan va Muhammad Ali Hasan hamda Mulla Qo'ldosh Oxund tomonidan yozilgan tarixiy xotira boshmachilik harakatining faqat siyosiy emas, balki ma'naviy, diniy va milliy ong asosida shakllangan xalq harakati ekanini ko'rsatadi. Bu maqola boshmachilikni oddiy qarshilik harakati sifatida emas, balki din, Vatan, xalq va ozodlik yo'lida fidokorona kurash tarzida tasvirlaydi.

Maqolada Sayyid Nosirxon to'ra obrazida diniy, siyosiy va axloqiy yetakchilik uyg'unlashgan. Uning surgundan qaytgach, sovet zo'ravonligiga qarshi qo'zg'alishga boshchilik qilgani, keng xalq bazasi va sobiq qo'rboshilar bilan aloqa o'rnatgani aniq tasvirlanadi. Harakatning mintaqaviy xarakterda boshlanganiga qaramasdan, u turkistonliklarning umumiy iztirobi bilan quvvatlanganini maqola mualliflari diniy-falsafiy ifodalar bilan asoslaydi: **"Bu qo'zg'olish turklik olovidan va inson bolasig'a o'rnak bo'lurlik turk uchqunidan bir shu'ladir"**.

Maqolada tasvirlangan harakatda ijtimoiy qatlamlar – sobiq qo'rboshilar, dehqonlar, muhojirlar,

madrasachilar va qishloq aholisi – birgalikda qatnashgan. Shu bilan harakat keng xalq qatlamlari orasida yondov oldi. Ayniqsa, milliy xoinlarga nisbatan jazolar, paxta siyosatiga qarshi yurishlar, sovet do'konlarini egallash, devoriy gazetalar tarqatish, soliqdan ozod qilish kabi qadamlar harakatni oddiy qurolli to'qnashuvdan chiqib, xalqni himoya qilish vositasiga aylantirgan.

Muhammad Umarbek, Islombek, Dadaboy ponsod kabi shaxslarning faoliyati orqali harakatda harbiy strategik rejalash, muvofiqlashtirilgan hujumlar va siyosiy tashviqot usullarining mavjudligi tasdiqlanadi. Ayniqsa, devoriy gazetalar orqali propagandaning olib borilishi harakatning faqat harbiy emas, axborot-mafkuraviy frontda ham faol

balki mustamlakachilikka qarshi harakatlar ichidagi ichki qarama-qarshilik, xiyonat va mafkuraviy chalkashliklarni ham yoritadi.

Maqolada eng avvalo e'tiborni tortadigan jihat Ibrohimbek Laqayning sovetlar tomonidan qanday hiyla bilan qo'lga olinganidir. Muqim Sulton o'g'li boshchiligidagi mahalliy kommunistik kuchlar Laqayni qaroqchilik faoliyatidan emas, milliy ozodlik kurashining vakili sifatida emas, balki oddiy jinoiy to'nqis sifatida tutishga urinadi. Ammo muallif bu versiyani rad etib, Ibrohimbekning harakatlarini milliy istiqlol kurashining bir bo'lagi sifatida talqin qiladi. Shu bilan birga, u Laqayning xatolarini yashirmaydi, ammo uning vafotini tarixiy qahramonlikning bir ko'rinishi sifatida baholaydi.

Maqolaning ikkinchi muhim qismi boshmachilik harakatidagi xoinlik holatlari va uning oqibatlaridir. Muqim Sulton o'g'lining bayonotlari orqali boshmachilik harakatining sindirilishiga olib kelgan ichki xiyonatlar fosh etiladi. O'qtoy bu holatni katta og'riq bilan qayd etadi va uni milliy ong, fidoyilik va kelajak avlod uchun saboq sifatida ko'rsatadi.

Abdolvahob O'qtoyning umumiy yondashuvi shundan iboratki, u boshmachilik harakatini faqat "qurolli qarshilik" emas, balki o'z zamonasining mafkuraviy va ijtimoiy-siyosiy fenomeni sifatida ko'radi. Aynan shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, Ibrohimbek Laqay obrazini tarixiy shaxsiyat sifatida barcha murakkablik va qarama-qarshiliklar bilan birga xalq irodasining ifodasi deb taqdim etadi.

Xulosa qilib aytganda, Jadidlik va boshmachilik harakatlari XX asr boshlarida Turkiston xalqlarining mustamlakachilik zulmiga qarshi ko'tarilgan ikki asosiy yo'nalishidir. Ularning har biri turlicha vosita va yondashuvlarga tayanib, yagona milliy ozodlik g'oyasi yo'lida faoliyat olib borgan. Jadidlar asosan ma'rifatparvarlik, zamonaviy ta'lim, milliy matbuot va ijtimoiy islohotlar orqali jamiyatni uyg'otishga harakat qilgan bo'lsa, boshmachilar qurolli kurash va an'anaviy qadriyatlar asosida siyosiy mustaqillikka erishmoqni maqsad qilgan.

Har ikki harakat ham o'z davrining mahsuli bo'lib, mustamlakachilik sharoitida shakllandi va ijtimoiy-siyosiy qarshilikning ikki qutbini ifodaladi. Sovet tarixshunosligi boshmachilik harakatini ko'pincha faqat salbiy kontekstda talqin qilgan bo'lsa-da, zamonaviy tarixiy manba va mustaqil tadqiqotlar bu harakatni milliy mujodalaning uzviy qismi sifatida qayta baholash zaruratini yuzaga chiqarmoqda. Demak, jadidlar va boshmachilar o'rtasidagi tafovutlarga qaramasdan, ularni yagona tarixiy manzara – mustamlakachilikka qarshi milliy kurash doirasida baholash adolatli yondashuv bo'ladi. Bu esa bugungi kunda ham milliy o'zlikni anglash va tarixiy xotirani tiklashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Sanjar AXMEDOV,
Oriental universiteti dotsenti v.b.,
tarix fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD).
Kichik serjant
Abbosxon SAFARALIYEV



SHIJOAT VA G'AYRAT NAMOYISHI

Yurtimizda yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning intellektual salohiyati va jismoniy tayyorgarligini oshirish borasida izchil ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Bugungi kunda davlatimizning yoshlarga oid siyosatini xalqaro hamjamiyat ham keng e'tirof etmoqda.

Jumladan, davlatimiz rahbarining 30-iyun kuni yoshlar bilan o'tkazgan uchrashuvdagi nutqida O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Yoshlar – 2030" strategiyasini jadal amalga oshirayotgan 10 ta davlat qatoriga kirgani, "Yoshlar taraqqiyoti indeksi"da mamlakatimiz yoshlar siyosati sohasida eng tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan davlat deb topilganini qayd etdi.

Shu bilan birgalikda, yoshlar bilan bo'lgan uchrashuvda Prezidentimiz bir qancha tashabbuslarni ilgari surdi. Unga ko'ra, yoshlarni vatanparvarlik va mardlik ruhida tarbiyalash maqsadida har yili "Shijoat va g'ayrat" harbiy sport musobaqalari o'tkaziladi, "G'alaba bog'i"dagi "Millat fidoyilari" monumentiga ziyoratlar tashkil qilinadi.

Ushbu tashabbuslardan kelib chiqqan holda hamda hududlarda sport musobaqalarini o'tkazish orqali yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, yoshlarni vatanparvar, jismonan sog'lom va har tomonlama barkamol qilib voyaga yetkazish maqsadida O'zbekiston mahallalari uyushmasi, Yoshlar ishlari agentligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Mudofaa va Sport vazirliklari hamkorligida "Shijoat va g'ayrat"



harbiy sport musobaqasi tashkil etildi.

Mudofaa vazirligi Ma'naviyat va madaniyat markazida musobaqaning shahar va tuman, viloyat bosqichida bellashib, final bosqichiga yetib kelgan jami 14 jamoa a'zolari ishtirokida ochilish marosimi o'tkazildi. 18 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan mahalla yoshlaridan iborat jamoalar hamda musobaqa tashkilotchilari "G'alaba bog'i" yodgorlik majmuasi hududidagi "Matonat madhiyasi" monumenti



poyiga gul qo'yib, "Shon-sharaf" davlat muzeyiga sayohat qildi.

Kunning ikkinchi yarmida Chirchiq shahrida joylashgan Qurolli Kuchlar akademiyasi o'quv jarayonini ta'minlash bazasida musobaqaning final bosqichiga start berildi. Yakuniy bosqich bellashuvlari harbiylashtirilgan shartlar asosida o'tkazilib, har bir bosqich ishtirokchilarning intizomi, jamoaviy ishlash ko'nikmalari va murakkab vaziyatda qaror qabul qilish qobiliyatini sinovdan o'tkazishi

bilan ahamiyatli bo'ldi.

Jamoa a'zolari jismoniy tayyorgarlik sinovi, o'quv granatasini uzoqlikka uloqtirish, qisqa va uzoq masofaga yugurish, AK-M74 avtomatini to'liq va noto'liq qismlarga ajratish va yig'ish hamda merganlar bellashuvi singari shartlarni bajargan holda o'zaro bahslarga kirishdi. Jamoasi uchun mardonavor kurashayotgan, qalbida vatanparvarlik tuyg'usi jo'sh urayotgan yoshlarning ertangi kunga bo'lgan ishonchi yuksak. Bu

ularning shijoatida, intilishlarida yaqqol aks etdi.

Bundan tashqari, musobaqa ishtirokchilari "Turnikda tortilish" hamda "Pnevmatik quroldan o'q uzish" kabi nominatsiyalar bo'yicha ham kuch sinashdi.

Musobaqaning tantanali yopilish marosimida mudofaa vaziri o'rinbosari, O'zbekiston mahallalari uyushmasi, Yoshlar ishlari agentligi, Davlat xavfsizlik xizmati va Sport vazirligi rahbariyati so'zga chiqib, ushbu bellashuvlar minglab yoshlarni

mahallasi yoshlari jamoasi sazovor bo'ldi. Birinchi o'rinni Toshkent shahri Mirzo Ulug'bek tumani Jasorat mahallasi yoshlari jamoasi egalladi.

- Bizning jamoa uchun bu musobaqa oddiy bellashuv emas, balki o'zimizni sinash, qobiliyatimizni namoyish etish uchun ajoyib imkoniyat edi, - deydi Alisher To'xtamurodov. - Albatta, g'alabaga qadar bo'lgan yo'l oson kechmadi. Jamoamiz a'zolari o'rtasida do'stlik, hamjihatlik, bir-birini qo'llab-quvvatlash muhiti bizni shohsupaga olib chiqdi. Bir maqsad yo'lida birlashdik va bu bizga kuch berdi. Murabbiylarimizning maslahatlari, qo'llab-quvvatlashlari esa yanada ishonch bag'ishladi. Bu g'alaba bizga shijoat, yangi marralar sari intilish kuchini berdi. Biz bundan keyin ham O'zbekistonimiz sharafini munosib himoya qilishga tayyormiz.

G'olib deb topilgan jamoaga musobaqa kubogi, faxrli o'rinlarga sazovor bo'lgan jamoalar hamda nominatsiya g'oliblariga esa diplom va qimmatbaho sovg'alar topshirildi. Qolgan jamoalar hamkor tashkilotlarning esdalik sovg'alari bilan rag'batlantirildi.

Tadbirning badiiy qismida Qurolli Kuchlar Markaziy ashula va raqs ansambli hamda taniqli san'atkorlar ijrosidagi konsert dasturlari namoyish etildi. Shuningdek, harbiy xizmatchilarning ko'rgazmali chiqishlari barchaga ko'tarinki kayfiyat bag'ishladi. Yosh vatanparvarlar yuksak orzular, yangi qarashlar, qat'iy maqsadlar bilan o'z viloyatlariga qaytdi.

Sherzod EGAMBERDIYEV,
"Vatanparvar"



birlashtirganini ta'kidlab, har bir ishtirokchi kelgusida chinakam Vatan himoyachisi bo'lib yetishishiga ishonch bildirdi.

Qizg'in va murosasiz bahs-munozaralar natijasiga ko'ra, 3-o'rinni Toshkent viloyati Angren shahri Gulbog' mahallasi yoshlari jamoasi qo'lga kiritdi. Ikkinchi o'ringa Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on tumani Sho'rak



Kelajak bunyodkorlari

Yurtimizda yoshlar uchun barcha imkoniyatlar eshigi keng ochilgan. Yoshlarimizning jismonan sog'lom, ma'nan yetuk insonlar bo'lib yetishishlarida sport bilan muntazam shug'ullanadigan, sog'lom turmush tarzini o'z hayotiy maqsadiga aylantirgan kuchli va zukko yigit-qizlar safining kundan kunga kengayayotgani fikrimiz dalilidir. Yoshlar oyligi hamda Yoshlar kuni munosabati bilan viloyatimizda o'z faoliyatiga ega yoshlar bilan suhbatlashdik.

– Otam, leytenant Olimjon Isroilov ichki ishlar organida xizmat qilgani bois men ham yoshligimdan ushbu sohaga qiziqishim yuqori bo'lgan, – deydi Navoiy viloyati IIB JXX YHXB ta'lim muassasalari bilan hamkorlik qilish guruhi katta inspektori leytenant Dinara Isroilova. – 2024-yil 15-iyuldan hozirgi lavozimimda xizmat vazifamni boshladim. O'zim yosh bo'lishimga qaramasdan, yosh bolalarni yaxshi ko'raman.

Mazkur sohadagi faoliyatimda bolalar ishtirokidagi avtohalokatlarning oldini olishda, maktab o'quvchilari o'rtasida keng ko'lamli profilaktik ishlarni olib borish, shuningdek o'quvchilarni yo'l qoidalariga rioya etishlarida targ'ibot tadbirlari muhim ahamiyatga ega. Shular natijasida har bir harakat ishtirokchisi o'zi va o'zgalarni yo'l harakati qoidalariga rioya qilishga da'vat etadi.

Xizmatdan bo'sh vaqtlarimda yengil atletika sporti bilan muntazam shug'ullanaman hamda badiiy asarlar o'qishni yoqtiraman. Yangi O'zbekiston yoshlariga vaqtlarini besamar o'tkazmasliklarini, kitob, gazeta va jurnallar mutolaa qilishlarini, maqsadlari sari intilib yashashdan to'xtamasliklarini tavsiya qilardim.

– Vatanni asrash va unga munosib farzand bo'lish har bir yoshning burchidir, – deydi Milliy gvardiyaning Navoiy viloyati bo'yicha boshqarmasi 1-Tezkor harakatlanuvchi maxsus otryadi 1-guruh komandiri Shahzod Safarov. – Vatan tinchligi va farovonligi yo'lida maqsadlarim sari intilib, 2016-yili muddatli harbiy xizmatga bordim. Yigitlik burchimni muvaffaqiyatli o'tab, 2017-yilda O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetiga o'qishga kirdim va 2021-yilda o'qishni tamomlab, Milliy gvardiyaning Navoiy viloyati bo'yicha boshqarmasiga ishga qabul qilindim. Faoliyatimda ko'plab tadbirlarda faol ishtirok etib, sovrinli o'rinlarni egallab, kasbiy tajribamni mustahkamlab bormoqdaman. Hozirgi kunda Vatanim va oilam oldidagi burchimni bajarishda matonat bilan xizmat qilmoqdaman.

Yangilangan Konstitutsiyamizda yosh avlodning huquq va manfaatlarini aniq moddalar bilan muhrlab qo'yilgani, shubhasiz, bu borada biz, yoshlar uchun yanada mustahkam poydevor bo'lib, xizmat faoliyatimizda yangi bosqichlarga ko'tarilish imkonini beradi. O'zbekistonda Yoshlar kuni munosabati bilan tengdoshlarimni chin qalbimdan tabriklab, mavjud imkoniyatlardan har bir o'g'il-qiz to'g'ri foydalanib, Vatanimiz ravnaqiga munosib hissa qo'shishlarida ulkan zafarlar tilayman.

– Yoshlar kuni bilan yurtimizning barcha yoshlarini samimiy muborakbod etaman, – deydi

Milliy gvardiyaning Navoiy viloyati bo'yicha boshqarmasi 2-Tezkor harakatlanuvchi maxsus otryadi 3-guruh mutaxassisi Zumrad Qarshiboyeva. – Bugun biz, yoshlar uchun keng imkoniyatlar eshigi ochilgan bo'lib, ulardan to'g'ri va unumli foydalanib, kelajagi uchun harakatdan aslo to'xtamasliklarini so'rardim.

Hozirgi sohamda xizmat faoliyatimni 2024-yil oktabr oyida boshladim. Yoshligimdan harbiy libos kiyishni orzu qilardim. O'z kasbimni sevib, sadoqat ila xizmat qilishdan aslo charchamayman. Menga dadajonimning so'zlari doim kuch berib keladi. “Qizim, sen hali general bo'lasan”, deb katta ishonch bildirishi kasbimga bo'lgan fidoligimni yanada mustahkamlaydi. Xizmat faoliyatimga ko'p bo'lmagan bo'lsa-da, muddatidan oldin harbiy unvon olishga musharraf bo'ldim.

Men o'z kasbim bilan faxrlanaman. Ishimizni tonggi soat 7:30 dan boshlaymiz, so'ng sport mashg'ulotlarida qatnashib, jamoat tartibini saqlashga qaratilgan kunlik xizmat vazifalarimizni bajarishga kirishamiz. Dala-o'quv mashg'ulotlariga chiqamiz: o'quv yig'inlari ham jismonan, ham ruhan

tayyorlab boradi. Kelajakda o'z kasbimning yetuk mutaxassisi bo'lib yetishib, Vatanimiz himoyasi yo'lida astoydil xizmat qilaman.

– Ichki ishlar sohasiga bo'lgan qiziqishim maktabdagi o'quvchilik davrimdan paydo bo'lgan, – deydi Navoiy viloyati IIB JXX YHXB 3-tumanlararo imtihan olish guruhi katta inspektori leytenant Ma'rufjon Rahmatilloev. – Maktabni bitirib, Toshkent davlat transport universitetiga o'qishga kirdim. 2021-yili o'qishni bitirib, 2022-yildan o'zim orzu qilgan sohamga ishga qabul qilindim.

Bilimlarimni mustahkamlashda doim ustozlarimdan maslahatlar olib, o'z mahoratim ustida ishlashdan aslo charchamayman.

Bugungi kunda men o'zim xohlagan kasbda ishlashimga sababchi bo'lgan insonlarim bu mening ota-onamdir. Otam temiryo'l, onam esa tibbiyot sohasida ishlaydi. Ularning bizga bergan tarbiyalari bilan o'z kasbimizning egasi bo'ldik. Zero Yangi O'zbekiston yoshlari sifatida buyuk kelajakni barpo etishimiz uchun barchamiz doimiy izlanishimiz, hayotimizning har bir lahzasidan unumli va samarali foydalanishimiz maqsadga muvofiqdir!

Bo'sh vaqtlarimda futbol bilan shug'ullanib kelaman. Shuningdek, Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Tohir Malik, O'tkir Hoshimov asarlarini sevib mutolaa qilaman. Imkoniyatdan foydalanib yoshlarimizni bayram bilan tabriklayman. Ularning o'qish va ishlarida ulkan zafarlar yor bo'lishiga tilakdoshman.

Albatta, bugun o'g'il-qizlarimiz jonkuyarlik, vatanparvarlik va hamjihatlik tuyg'ularini his qilgan holda xizmat vazifalarini astoydil bajarmoqda. Yangi O'zbekiston yoshlari, bugun o'z oldingizga ulug' maqsadlar qo'yib yashashdan aslo charchamang! Unutmang, g'alaba va baxt – astoydil intilganniki! Zero yurakdagi ulkan jasorat, shijoat va qalbingizdagi ezgulik alangasi hech qachon so'nmasin!

Dilafruz XALILOVA,
Navoiy viloyati “Muqaddas burch”
gazetasi bosh muharriri

Mushohada

OTAM HAM, ONAM HAM — VATAN

Bobom 80 yoshdan o'tgan. Garchi tishlari to'kilib, qaddi biroz egilgan bo'lsa-da, o'zini bardam tutadi. Ba'zi chollarga o'xshab soyada yotishni xush ko'rmaydi. Sovuqda ham, issiqda ham mahalla aylanib, o'ziga albatta biror yumush izlab topadi. Bir gal qaysidir ko'chada chiqindi qutisi yo'qligini payqab, necha kun vaqt sarflab, uni o'rnatishga erishsa, keyingi gal ariq-zovurlar kovlanmagan, deya mahalla raisiga dakki beradi. To'ylarni dabdaba bilan o'tkazish uvol, deb guzarda to'plangan yosh-u qariga nasihat qiladi, goh mahalladagi e'tibordan chetda qolgan biror beva yoki mo'ysafidning xonadonida hashar uyushtiradi.

Bobomning yana bir iqtidori borki, jarayonda undan norozi kayfiyatda bo'lgan kishini darhol ilg'ay oladi va nafaqat o'sha insonga, balki barchaga birday o'gitlar qiladiki, undagi hikmat mag'zini chaqqan odam yer chizib qoladi.

Bobom qishlog'imizni juda yaxshi ko'radi, uning har bir qarich yerini, suvini qadrlaydi, qariyb besh avlod yashaydigan qishloq ahlining hammasini birdek taniydi.

– Bundan 65-70 yillar ilgari qishlog'imiz to'qay edi. 10-15 chog'li xonadon tomi bir-biriga elas-elas ko'rinardi. Qishloqda tulki, chiyabo'ri, quyonlar ko'p, qirg'ovul, o'rdaklar ovlanar edi, – eslaydi bobom.

Hozir qishlog'imiz shahardan qolishmaydi. Bobom tasvirlagan to'qay o'rnida ko'p qavatli uylar qad rostlagan. Tekis va ravon yo'llar, uning chetidagi gul-u rayhonlar kishiga ko'tarinki kayfiyat bag'ishlaydi.

Bobom yaqindan beri qo'p qavatli uylar tushgan mahallaga tez-tez qatnay boshladi. “U yerda bobomga mos nima bor ekan?” deb ko'p o'ylandim, lekin o'zidan so'ragani iymandim.

Bir kun ishdan qaytayotsam, mahalla faollari ko'p qavatli uylar tomon shoshib ketyapti. “Eh, bobom nimadir topdi shekilli”, deya xayolimdan o'tkazdim. Bobom “nimadir” topganini ertasi kuni mahalladagi “duv-duv” gapdan bildim. Ko'p qavatli uylarning ikkinchi qavatidagi bir deraza kunlar davomida ochilmabdi, kechasi chirog'i yonmabdi. Bobom o'yingohda yurgan bolakaylardan o'sha xonadon egasini so'rabdi. Ular: “Bir chol yashaydi, hech kimi yo'q”, debdi. Bobom 2-3 kun qo'ni-qo'shnilarining eshigini taqillatibdi, xonadondagilarning bari ishda shekilli, eshiklar ochilmabdi. Mo'ysafid yashayapti deb gumon qilinayotgan uy ham harchand taqillatilsa-da, hech qanday ovoz bo'lmabdi. Shunda bobom uchastka nozirini topib, eshikni ochtiribdi.


Ikki xonali shinam uy toza va tartibli ekan. Ro'parasidagi xonada 70 yoshlar atrofidagi nuroniy qo'lidagi suratga termilib, go'yo jonsiz yotarkan. Nozir darhol “Tez tibbiy yordam”ga qo'ng'iroq qilibdi, shifokorlar yetib kelib, kerakli muolajalarni qilibdi. Otaxonning yuziga biroz rang yugurib, atrofga qarabdi va xijolatli tarzda: “Hammalaringga rahmat”, debdi. Zaruriy amallar tugagach, bobomdan boshqa kishilar chiqib ketibdi. Ikki nuroniy yolg'iz qolgach, o'zaro suhbatga tushibdi.

Bobom topgan mo'ysafid Ikkinchi jahon urushidan keyingi og'ir yillarda Surxon vohasida tug'ilgan bo'lib, qo'shnisi Botir boboga havas qilib, voyaga yetibdi.

– Botir bobo mening qahramonim edi, u urushdan oyog'i cho'loq bo'lib qaytgan, ko'plab janglarda qatnashgan ekan. Uni yo'qlab o'quvchilar, hukumat odamlari ko'p kelardi, men esa boboga ko'rsatilayotgan hurmatdan lol qolardim. Shuning uchunmi, maktabni bitirib, harbiy bo'ldim, ozmi-ko'pmi, Vatanimga xizmat qildim. Qarangki, yolg'iz o'g'lim ham harbiylikni tanladi, uning o'g'li, nabiram ham yigitlik burchini o'tab, yurtimiz sarhadlari, tinchligini qo'riqlayapti, – debdi mo'ysafid.

– Unda nega yolg'izsiz? – so'rabdi bobom.

– O'g'lim oilasi bilan Xorazmda yashaydi, uzoq yillar o'sha yerda ishlab, xorazmliklarga qiz berdi, kelin oldi va o'troq bo'lib qoldi. Men esa kampirim vafotidan so'ng vodiya ga kelib qoldim,



rahmatli vodiya edi. Nevaram ham Farg'onada harbiy xizmatda. Uch kun oldin qo'ng'iroq qildi, “Bobojon, meni Surxondaryoga o'tkazishyapti”, deb. Nabiramning bu xabari xotiralarimni jonlantirib yubordi. Suyunganimdan qon bosimim ko'tarilib ketibdi. Sizga rahmat, men siz tufayli navqiron yillarim o'tgan yurtga qaytadigan bo'ldim. Aslida O'zbekiston, uning har viloyati mening Vatanim, ayni damda otam ham, onam ham shu yurt, shu Vatan. Vatanim deb, uning chor burchini kezzim, xizmat qildim, farovon yashadim, farzand-u nabiralarim ham mening izimdan borayotgani – Vatanim meni ardoqlagani! – hayajonini bosolmay entikibdi uy sohibi.

Bobom shu voqeadan keyin yanada g'ayratga to'ldi. “Vatan uchun, yurt uchun nima qilding?” deya uchraganga savol beradigan bo'ldi. Maktablarga borib, tanaffusga chiqqan o'quvchilarga mo'ysafid haqida so'zlashdan charchamadi. Ha, mening bobom ana shunday jonsarak, yurtini jon-dilidan sevuvchi inson, Vatanimning urib turgan bir yuragi.

O'ktamxon AKBAROVA
Uchko'priq tumani

Premyera

SAHNADAGI OG'RIQLI HAQIQAT

Qashqadaryo viloyati musiqali drama teatrida taniqli yozuvchi, publitsist, davlat va jamoat arbobi Xayriddin Sulton qalamiga mansub “Uyg'on, bolam!” asari asosida tayyorlangan spektaklning premyerasi bo'lib o'tdi.

Unda Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrugning harbiy xizmatchilari va ularning oila a'zolari ham ishtirok etdi. Asar san'at arbobi, mahoratli rejissyor Olimjon Salimov tomonidan sahnalashtirilgan bo'lib, u komediya emas, balki hayotimizdagi og'riqli haqiqatlar bilan yuzlashtiradigan dramatik tomosha sanaladi.

Teatr – tarbiya maskani, desak, hech ham mubolag'a bo'lmas. Teatr haqida buyuk dramaturg Jan-Batist Molyer shunday degan: “Teatr faqat ko'ngilochar joy emas, balki qalbni uyg'otuvchi maktabdir”. Darhaqiqat, “Uyg'on, bolam!” asari ham kulgi orqali inson qalbini titratadi, og'riqli haqiqatlar bilan yuzma-yuz qiladi.

Spektaklda Begmat Rajabovich tomonidan amalga oshirilayotgan “Kambag'allikni qisqartirish” dasturi

orqali jamiyatdagi boqimandalik va tamagirlikka qarshi kurash namoyon etiladi. Xudoyberdi va Mahmudaning oilasi misolida ko'rinadiki, kambag'allik faqat moddiy yetishmovchilik emas, balki ruhiy tanazzul, beg'amlik va bilimsizlik natijasi hamdir. Mana shu ikki oila misolida yuzlab oilalarning obrazi, millatning kelajagini shakllantiradigan tarbiya asoslariga beparvolikning jonli namunasi ko'rsatib beriladi.

Kambag'allikni yo'qotish yo'lida insonning o'zi bilan kurashi, o'zgarishga bo'lgan irodasi va fe'l-atvorini ochib berish – spektaklning bosh g'oyasi etib

belgilangan. Ha, bu asarda shunchaki rollar emas, hayotlar, taqdiralar va kechikishlar gapiradi. Shuning uchun ham spektakldagi har bir harakat, har bir so'z, har bir sukut o'zining og'rig'i va mazmuni bilan yuraklarga yetib boradi.

Umuman olganda, “Uyg'on, bolam!” spektakli real hayotdan olingan murakkab ijtimoiy jarayonlarni sahnaga olib chiqib, bizni o'z hayotimiz, oilamiz va jamiyatdagi mas'uliyatimiz haqida qayta o'ylashga undaydi.

Bu asar orqali tomoshabin nafaqat ma'naviy ozuqa oladi, balki jamiyat islohotiga daxldorlik hissini, inson va oila tarbiyasidagi mas'uliyatni anglaydi.



Aslida qahramonlar hayoti kim uchundir ko'zgu, kim uchundir ogohlantirishdir. Zero sahnaga olib chiqilgan har bir asar hayotning biz bilgan, ko'rgan va anglashimiz lozim bo'lgan qirralarini ochib beradi. Shu asnoda harakatlarimizni tartibga soladi, tafakkur qilishga o'rgatadi.

Shohista ABDURAHMONOVA,
san'atshunos

Biz gazeta o'qimaymizmi?

“...Afsuski, bugun “makulatura” so‘rasa, qo‘lingizga gazeta, jurnal tutqazadigan avlodga aylandik”.

Mutaxassislar fikricha, insonning miya faoliyati ma'lumotni elektron doska va monitorlarga qaraganda qog'oz vositalari, xususan gazeta, jurnal va kitoblardan o'qiganda ko'proq hamda samaraliroq qabul qiladi. Nur taratmagani bois gazeta va jurnal yoki kitob sahifalariga uzoq vaqt qarash, ularni sinchiklab o'qish, saqlab qo'yish va kerak bo'lganda yana ko'z tashlash qulay. Qolaversa, har qanday matbuot nashri tarixning bir bo'lagiga aylanadi. Yillar o'tib, kelajak avlod ma'lum bir davr haqida ma'lumot olmoqchi bo'lsa, shubhasiz, o'sha paytda chop etilgan gazetalarga murojaat qiladi. Shu orqali zamon nafasi, haroratini his etadi. Ha, savolni aynan shunday bermoqchiman: “Siz qaysi gazetani o'qiyapsiz? Gazeta o'qiyasizmi o'zi yoki hozir o'qiyapsizmi?” deb so'ramoqchi emasman. Men o'qiyapman va ishonaman, umid qilamanki, siz ham o'qiyapsiz, boshqalar ham o'qiyapti. Gazeta o'qimay qo'rgan odamlar “hech kim o'qimay qo'ydi” degan fikrda bo'lsa, ehtimol.

Har kuni ertalab kunimizni bir piyola choy, qahva va qo'limizda gazeta bilan boshlaymizmi, aksincha. Ko'zimizni ochishimiz bilan smartfonimizni qo'limizga olamiz. Bilasizmi, gazeta ko'p odamlar uchun aniq, qisqa va obyektiv ma'lumotlarning eng yaxshi manbai. Jurnal esa ko'pincha o'ziga xos va o'ziga mos mavzular va umumiy qiziqish uyg'otadigan dolzarb masalalar koni.

IT texnologiyalari rivojlangan davrda esa fuqarolarimizning ongi gadjetlar orqali rivojlanmoqda. Gazetani jamoatchilikka yangiliklarni zamonaviy, xolis va aniq yetkazib berishga qaratilgan ketma-ket bosiladigan davriy nashr deb tushunish mumkin. U oq yoki kulrang ingichka qog'ozga qora siyoh bilan bosilgan, jamoatchilikni qiziqtiradigan dolzarb voqealar bilan bog'liq ma'lumotlardan iborat. Ular savdogarlar tomonidan obunada, shuningdek o'tish joylarida, gazeta do'konlarida, do'kon va temiryo'l stansiyalarida mavjud.

Ko'pgina mutaxassislarning fikriga ko'ra, gazeta va jurnallarni o'qish juda yaxshi odatdir, chunki bu bilimlar bazangizni va tushunish darajangizni oshiradi, shuningdek dolzarb mavzular, sport, uslub yoki boshqa narsalar bilan bog'liq har qanday munozarada qatnashganda sizga yordam beradi.

Ha, bugun internetda axborot tarqatish tezligi bilan bahslashadigan manba harqalay hozircha ma'lum emas. Ammo faqatgina axborotning tezkorligini muhim bilib, fikr-mulohazali, tahliliy-tanqidiy maqolalar o'qishdan o'zni mahrum qilish ham to'g'ri bo'lmas. Bosma nashrlarni, xususan gazeta o'qishni tark etayotgan bugungi jamiyat mana shu sababdan ham ur-yiqit axborotlar bilangina qanoatlanayapti. Kishi internetda o'ziga kerak bo'lgan axborotni qidirar ekan, smartfon ekranida u minglab o'ziga jalb qiluvchi reklama va targ'ibot ilovalariga duch keladi. Beixtiyor ularning qutqusiga uchib, asosiy maqsad-muddaodan chalg'iydi. Adashgan yoshlar, jinoyatga qo'l urayotgan insonlar ana shunday tahrirsiz, asossiz axborotlar qurboniga aylanayotganini hech kim inkor etolmaydi. Internetda juda ko'p soxta yangiliklar mavjud va gazeta har doim tasdiqlangan ma'lumotlarni taqdim etadi. Biz bugungi internet tajovuziga qaramay, dunyoda har kuni minglab, millionlab gazetalarda chop etilayotganidan xabardormiz. Holbuki, internet AQSh, G'arb davlatlari, Yaponiya yoki Xitoyda O'zbekistondagiga qaraganda ancha tezkor. Ammo ularda bugun ham gazetalarda millionlab nusxada chop etilyapti. Muhimi, gazeta o'qish kishida mutolaa ko'nikmasini hosil qiladi.

BIRINCHI GAZETA hozirgi zamonaviylariga o'xshamagan. U ko'proq yangiliklarni o'z ichiga olgan maktubni eslatgan. Miloddan avvalgi V asrda Rimda bu xatlarni yozib, ularni poytaxtdan uzoqda yashaydigan odamlarga yuborgan bir kishi yashagan. Miloddan avvalgi 60-yilda Yuliy Sezar davrida gazetalarda hozirgilarga o'xshay

boshlagan. U hukumatni forumda taqdim etish uchun kundalik byulletenni chop etishga majbur qilgan. Asosan hukumat e'lonlariga bag'ishlangan “Akta diurna”ning nomi “Kun voqealari” degan ma'noni anglatgan. Ilgari yangiliklardan tez xabardor bo'lish biznes uchun muhim bo'lgan. Ishbilarmonlar qanday muhim voqealar sodir bo'lganini bilishi kerak bo'lgan. Shuning uchun ilk gazeta yoki axborotnoma XVI asrda taniqli xalqaro nemis bankirlar oilasi – Faggerslar tomonidan yaratilgan. Shuningdek, ular ishonchli yangiliklar yig'ish tizimini ham yaratgan. Bu vaqtda Venetsiyada odamlar hukumat tomonidan kundalik e'lon qilingan yangiliklar to'plamini o'qish uchun bir gadzette (*mayda tanga*) to'lagan. U “Yozib olingan yangiliklar” deb nomlangan.

Londonda muntazam nashr etilgan birinchi gazeta “Informator” deb atalgan. Bu 1663-yilda sodir bo'lgan. Aloqa va yangiliklarni yig'ish ham, ularni chiqarish ham sust kechgani tufayli paydo bo'lgan birinchi gazetalarda haftada bir marta nashr etilishi mumkin bo'lgan. Amerikaning birinchi gazetasi bo'lmish “Jamoat hodisalari” 1690-yilda Bostonda chiqa boshlagan, ammo ko'p o'tmay koloniya gubernatori buni to'xtatgan. Benjamin Franklin 1729-yildan 1765-yilgacha “Pensilvaniya gazetasi”ni boshqargan. Odamlar yangiliklardan boxabar bo'lishga shunchalik intilganki, Amerika inqilobi davriga kelib koloniyalarda 37 ta nashr chop etilgan. Hozirgacha nashr etilayotgan eng nufuzli gazetalardan biri 1785-yilda “Deyli Yunivesl Redjester” nomi bilan paydo bo'lgan Londondagi “Tayms” gazetasidir.

O'zimizda ham gazetalarda bosqichma-bosqich nashr etila boshlangan, misol uchun, “Taraqqiy” – jadidlar gazetasi. 1906-yil 14 (27)-iyundan Toshkentda chop etilgan. Noshiri va muharriri – Ismoil Obidiy. “Taraqqiy”

tom ma'nodagi ilk milliy nashr hisoblanadi. Uning sahifalarida chor Rossiyasining Turkistonda olib borayotgan mustamlakachilik siyosatini dadillik bilan fosh qilishga bag'ishlangan maqolalar, xabar va ma'lumotlar bosilgan. “Taraqqiy”da bosilgan felyeton va boshqa materiallarda tanqidiy yo'nalish, fosh qilish ruhi kuchli bo'lgani uchun u o'sha davrning eng ommaviy nashriga aylangan va jamoatchilik fikriga katta ta'sir ko'rsatgan. Munavvarqori Abdurashidxonov, Mahmudxo'ja Behbudiy, So'fizoda, Nozimaxonim, Bahrombek Davlatbekov, Shokir Muxtoriy, Zarif Xoliqiy va boshqalarning ommaga milliy ozodlik, taraqqiyot g'oyalari targ'ib va tashviq qiluvchi asarlari “Taraqqiy” sahifalarida bosilib turgan. “Taraqqiy” tutgan yo'l, gazetaning maslasi va maqsadi, unda chop etilgan asarlardagi o'tkir tanqidiy ruh mustamlakachi ma'murlarga ma'qul kelmagan. 19-soni chiqqanidan so'ng “Taraqqiy” yopib qo'yilgan. Muharriri qamoqqa olinib, gazetaning mol-mulki musodara qilingan.

Yashirib o'tirmayman, hozirgi kunda gazetaga qarshi chiqayotganlarning aksariyati o'zining munosabatini madaniyatli tarzda va tartib-taomili bilan ko'pchilikka namoyish qilmayapti. Chunki gazeta qo'pollikni, birovning nafsoniyatiga tegish, yolg'on axborot berish holatlarini hazm qilmaydi.

Gazeta hech narsaga, hech qachon raqobatchi bo'lmagan: televideniyeiga ham, telefonga ham, internetga ham. Chunki uning vazifasini boshqa hech qaysi axborot vositasi bajara olmaydi. Gazetaning inson ruhiyatiga ta'siri shundaki, u ichki intizomni o'rgatadi, ya'ni har kim yozgan so'ziga, aytgan so'ziga javob beradi. Binobarin, bu gapni, bu yozuvni o'chirib ham, kuydirib ham bo'lmaydi – tarixda qoladi. Gazeta odamni mushohadaga o'rgatadi. Undagi maqolani o'qib, fikr bildirasiz, mulohazalaringizni yozasiz. Bundan xulosa qilish mumkinki, gazeta o'qimayotgan avlod kitob o'qishdan ham yiroqlashyapti. Shunday ekan, bosma nashrlar taqdiriga befarqlik yosh avlodning savodxonlik darajasiga ham salbiy ta'sir qilishini tushunib yetishimiz lozim.

Ma'lumot o'rinda shuni aytish lozimki, davlatimiz rahbarining egzu tashabbusi bilan 2024-yilning ilk kunida “Jadid” gazetasi chop etildi. Ushbu nashr Vatan va xalq manfaatlarini yo'lida jonfido qilgan millat oydinlari – jadid bobolarimiz hayoti va faoliyatini keng targ'ib etishda o'ziga xos tafakkur maydoni bo'lib xizmat qiladi. Jadid ma'rifatparvar bobolarimiz millatni uyg'otish, uni taraqqiyot sari undash uchun ham ishini eng avvalo gazeta ta'sis etishdan boshlagan. “Tarjimon”, “Oyina”, “Taraqqiy”, “Sadoyi Turkiston”, “Sadoyi Farg'ona”, “Najot”, “Hurriyat” kabi bosma nashrlar orqali milliy istiqlo, hurriyat, ma'rifat kabi hayotbaxsh g'oyalarni xalq ichiga olib kirishga intildilar. So'nggi yillarda davlatimiz rahbari tomonidan jadid ma'rifatparvar bobolarimizning Vatan taraqqiyoti, millat ravnaqi yo'lidagi sa'y-harakatlarini yanada keng tadqiq etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Xulosam shu: ma'naviy ehtiyojni pulga chaqish mumkin emas, tahririyatlarni davlat, azbaroyi, o'z siyosatining targ'ibotchisi sifatida yuz foiz qo'llab-quvvatlamog'i, ayniqsa ziyoli qatlamning muntazam gazeta o'qishi uchun imkoniyat yaratmog'i zarur. Zamona zayli, davr talabi bilan har bir ijodiy jamoa va jurnalist o'zgarib boraveradi va shunday bo'lyapti ham. Muhimi, gazeta o'qish kishida mutolaa ko'nikmasini hosil qiladi.

Otabek QOBILOV,
TIFT universiteti
tarix yo'nalishi talabasi



Chempionat

DIQQAT, ANIQLIK VA IRODA MAKTABI

So'nggi yillarda yurtimizda sport sohasini rivojlantirish, ayniqsa yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini keng targ'ib etishga qaratilayotgan e'tibor sezilarli natijalarni bera boshladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida nafaqat an'anaviy sport turlari, balki texnik mahorat talab etuvchi yo'nalishlar ham jadal sur'atlarda rivojlanmoqda. Shu qatorda o'q otish sporti alohida ahamiyatga ega.

Ushbu sport turi insondan jismoniy baquvvatlikdan tashqari, yuqori darajada diqqatni jamlay olish, muvozanatni saqlash, sabr-toqat va tezkor qaror qabul qilish qobiliyatini talab qiladi. Ayniqsa, yoshlar o'rtasida ushbu sport turiga bo'lgan qiziqish kun sayin ortayotgani va ularning muntazam mashg'ulotlar orqali muvaffaqiyatga erishishga intilayotgani quvonarli holdir.

Mudofaa vazirligi tasarrufidagi o'q otish sport markazida 21 yoshgacha bo'lgan yoshlar o'rtasida O'zbekiston chempionati bo'lib o'tdi. Musobaqada yurtimizning turli hududlaridan iqtidorli o'g'il-qizlar ishtirok etdi. Ularning har biri miltiq va pistoletda turli masofalardan – 10, 25 va 50 metrdan o'q otish bo'yicha bellashib, o'z mahorati, diqqat va ruhiy barqarorligini namoyon etdi.

Musobaqa doirasida o'tkazilgan tantanali taqdirlash marosimida mudofaa vazirligining sportchilarga yo'llagan tabrigi o'qib eshittirildi. Shundan

so'ng so'zga chiqqan mutasaddilar o'q otish sportiga qaratilgan e'tibor, yaratilgan zamonaviy infratuzilma, xalqaro tajribaga asoslangan tayyorgarlik tizimi hamda yosh sportchilarning xalqaro musobaqalarda erishgan yutuqlari haqida alohida ta'kidladi.

Maxsus ta'lim markazlari, zamonaviy tir maydonlari, trenerlar malakasini oshirishga qaratilgan dasturlar hamda yoshlar uchun yaratilgan imkoniyatlar ushbu sohadagi yutuqlarning poydevori bo'lmoqda.

O'zbekiston chempionatida 10 metr masofadan miltiqda o'q otish bo'yicha 1-o'rinni egallagan Javohir Sohibov musobaqa davomida nafaqat o'z mahoratini, balki yuksak ruhiy tayyorgarligini ham namoyon etdi. Uning g'alabasi tasodif emas – bu yillar davomida yig'ilgan tajriba, intizom va mehnat samarasi.

– O'q otish sportiga ancha yillardan buyon qiziqaman, – deydi Javohir. – Ilk bor tir maydonida miltiqni ushlaganimda, bu sport shunchaki bellashuv emas, balki shaxs tarbiyasi ekanini his qilganman. Mashq jarayonida inson diqqatni jamlash, his-tuyg'ularini nazorat qilish, har bir harakatini hisoblashni o'rganadi. Miltiqni ushlagan zahoting, sen har bir qaroring uchun javobgarlikni his qila boshlaysan. Bu esa hayotdagi boshqa barcha qarorlarga ham ta'sir qiladi. Ushbu sport turi insonni jismonan va ma'nan kamolotga yetaklaydi. U faqat nishonga o'q uzish emas, balki ichki dunyo bilan ishlash, o'z "men"ini tarbiyalash jarayoni ekan. Ba'zan tirda turganingda atrof jimjit bo'ladi, ammo sening ichingda turli xavotirlar, shubhalar, kutilmagan xayollar qaynayotgan bo'ladi. Hamma narsani birzumda to'xtatib, faqat maqsadga qarash kerak. Nafas, harakat, fikr – barchasi uyg'unlashishi lozim.

10 metrdan pistoletda o'q otish bo'yicha mutlaq g'olib bo'lgan Iroda Azimboyeva o'ziga nisbatan yuqori talab qo'yadi. Uning aytishicha, har bir mashq – bu katta imtihon. Har bir o'q uzish ortida tajriba, qalbdagi ishonch va uzoq mashqlarning izi bor.

– Men bu sport orqali o'zimni yaxshi angladim. Bilasizmi, tir oldida turgan inson uchun eng katta raqib o'z shubhasi, – deydi Iroda. – Shuni yengish uchun esa ishonch, to'g'ri tayyorgarlik va barqaror psixologiya zarur. Sportchiga medaldan ham muhimroq narsa – maqsadining borligi. Mening maqsadim – O'zbekiston sharafini xalqaro musobaqalarda himoya qilish! Milliy bayrog'imiz xalqaro arenalarda baland ko'tarilishi, yurtimiz nomini faxr bilan e'lon qilish men uchun eng oliy orzudir. Bu yo'lda menga kerak bo'lgan barcha narsalar sabr, mehnat, intizom va ishonchni aynan o'q otish sporti orqali topdim.

Chempionat yakunida g'olib va sovrindor bo'lgan yoshlar Mudofaa vazirligi tomonidan maxsus diplom, medal va esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi. Eng muhimi, ushbu musobaqa yosh sportchilar uchun nafaqat mahoratni namoyon etish imkoni, balki kelgusidagi muvaffaqiyatlar uchun ilhom manbai bo'ldi.

O'q otish nafaqat jismoniy chidamlilik, balki aqliy zehn, iroda va mas'uliyatni tarbiyalaydigan muhim sport turlaridan biridir. Bu sportga qiziquvchi yoshlarning ko'payayotgani esa mamlakatimizda sog'lom va ma'naviy yetuk avlod voyaga yetayotganidan dalolat beradi. Bunday musobaqalar orqali ular nafaqat sportchi, balki har tomonlama rivojlangan, fidokor va vatanparvar insonlar sifatida kamol topishlari shubhasiz.

Ro'ziqul OCHILOV,
"Vatanparvar"

Harbiy sport o'yinlari

ANDIJONLIK SHUNQORLAR G'OLIB

Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurtida O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi raisi kubogi uchun "Shunqorlar" harbiy sport o'yinlarining respublika bosqichi o'tkazildi.

Bellashuvning final bosqichida Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlardan 17 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan 140 nafar yoshdan tashkil topgan 14 ta jamoa uchta bosqichdan iborat sinovda o'zaro kuch sinashdi.

Dastavval "Harbiy-vatanparvarlik" bosqichida jamoa a'zolarining O'zbekiston tarixiga doir bilimlari tekshirilgan bo'lsa, "Harbiy-amaliy ko'pkurash" va "Sport" bosqichlaridagi bellashuvlar qizg'in bahslarga boy tarzda kechdi. "Harbiy-amaliy ko'pkurash" bosqichida jamoalar pnevmatik quroldan o'q otish, o'quv granatasini uzoqlikka uloqtirish va harbiylashtirilgan estafeta bo'yicha bellashdi. Harbiylashtirilgan estafeta doirasida yoshlar "AK-74" avtomatini qismlarga ajratish va yig'ish hamda gaz niqobni kiyib, belgilangan masofaga yugurish shartlarini bajardi.





harakat qilib, mutlaq g'alabaga erishdik. Shu o'rinda bizning musobaqaga tayyorgarlik ko'rishimiz uchun barcha sharoitlarni yaratgan insonlarga o'z minnatdorigimizni bildiramiz.

Shuningdek, musobaqa davomida sport me'yoriy ko'rsatkichlarini bajargan 6 nafar ishtirokchi uchinchi sport razryadiga ega bo'ldi.

Eslatib o'tamiz, ushbu musobaqa 2021-yili qayta tiklanib, o'sha yili Toshkent viloyati yoshlari O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi raisining kubogiga sazovor bo'lgan. So'nggi uch yil mobaynida ushbu kubok Xorazm viloyati jamoasiga nasib qilayotgan edi. Musobaqa davomida yoshlarning harbiy xizmatga bo'lgan qiziqishi, g'alabaga intilishi va jamoaviy ruhi ko'zga yaqqol tashlandi.

Harbiy sport o'yinlarining tantanali yopilish marosimida g'oliblar hamda faxrlil o'rinlarni qo'lga kiritgan jamoa a'zolari "Vatanparvar" tashkiloti, Yoshlar ishlari agentligi, O'zbekiston yoshlar ittifoqi tomonidan diplom va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi. E'tiborli jihati, mazkur o'yinlar doirasidagi turli musobaqalarda yuqori natijalarni ko'rsatgan yigit va qizlar sport razryadlariga ega bo'ldi.

Ta'kidlash joizki, respublika miqyosida o'tkazib kelinayotgan "Shunqorlar" harbiy sport o'yinlari "Vatanparvar"

"Sport" bosqichida duatlon, 100 metr masofaga yugurish va turnikda tortilish bo'yicha o'zaro musobaqalashdi. "Shunqorlar" harbiy sport o'yinlari davomida yoshlarning g'alabaga kuchli intilishi, shijoati va harbiylikka bo'lgan qiziqishi yaqqol sezilib turdi. Musobaqadan maqsad ham yoshlarni Vatanga sadoqat va yuksak harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, chaqiruvga qadar yoshlarni Qurolli Kuchlar safida xizmat qilishga qiziqishini oshirib borish hamda ularni ruhan va jismonan chiniqtirishga qaratildi.

Do'stona ruhda, shu bilan birga shiddatli va murosasiz kechgan "Shunqorlar" harbiy sport o'yinlarining respublika bosqichida Andijon

viloyati Marhamat tumani 2-son kasb-hunar maktabi jamoasining qo'li baland kelib, O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi raisining kubogini qo'lga kiritdi. 2-o'rin Toshkent viloyati Qibray tumanidagi 28-umumta'lim maktabining "Amir Temur" jamoasi, 3-o'rin esa Samarqand viloyati Bulung'ur tumanidagi 42-umumta'lim maktabining "Temuriylar" jamoasiga nasib etdi.

– Bellashuvning har bir sharti shiddatli kechdi va katta raqobat muhitida o'tdi, – deydi musobaqa ishtirokchisi, Marhamat tumanidagi 2-son kasb-hunar maktabi o'quvchisi Gulsevar Jamoliddinova. – Shunga qaramay, jamoamiz bilan birga, hamjihatlikda


tashkilotining "Vatanparvarlik – oliy maqsadimiz!" konseptual harbiy-vatanparvarlik g'oyasi ostida yoshlarni birlashtirishga mustahkam zamin yaratdi.

Yana bir muhim ma'lumot, "Shunqorlar" harbiy sport o'yinlarining bayrog'i va emblemasi yaratilgan bo'lib, asosiy ramz sifatida shunqor qushi tanlangan. Bu bejiz emas, chunki shunqor lochinsimonlar oilasiga mansub kuchli, abjir qush hisoblanadi va u ko'chma ma'noda mard, jasoratli, kuchli shaxsga nisbatan ham qo'llaniladi.


Katta leytenant Dilshod RO'ZIQULOV,
"Vatanparvar"

Sog'lom turmush tarzi

KO'RINMAS DUSHMAN



VIRUSLAR HAQIDA NIMA BILAMIZ?



Hayot ko'zga ko'rinmas kuchlar bilan kurash maydonidir. Inson organizmi har kuni jimjit, lekin shiddatli urushda viruslar deb nomlangan yovuz dushmanlar bilan yuzmayuz keladi. Ular tufayli butun insoniyat birzumda shoshilinch holatga tushishi, davlat chegaralari yopilishi, millionlab odamlar hayoti izdan chiqishi mumkin. Buning isboti sifatida 2020-yilda butun dunyoda hukm surgan pandemiyanı eslash kifoya.

Bu dunyodagi eng g'alati "maxluq" virusdir. Hech qanday hujayra tuzilmasiga ega bo'lmagan, lekin butun insoniyatni izidan yuritgan bu mikroskopik hodisa haqida olimlar bir ovozdan shunday deydi: "Virus bu tabiatning sirli kodi, u hayot va o'lim orasidagi noyob xatosiz mexanizmdir." Virus shunchaki kasallik manbai emas. U tabiatning eng sirli va aqlni hayratga soluvchi maxluqlardan biri. Olimlarning ta'riflashicha, viruslar na to'liq tirik, na to'liq o'lik tuzilma. Ular faqatgina tirik hujayra ichida ko'payish qobiliyatiga ega. Biroq shu kichkina, mikroskopik zichlikdagi tuzilma shunchalik xavfli, u tanaga kirishi bilan butun immun tizimini izdan chiqarishi mumkin. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotiga ko'ra, har yili viruslar sababli millionlab inson turli infeksiyon kasalliklarga chalinadi. Masalan, gripp, gerpes, OIV, COVID-19 kabi kasalliklar turli viruslar orqali tarqaladi. 2019-yil oxirida paydo bo'lib, dunyoda 7 millionga yaqin insonning umriga zomin bo'lgan SARS-CoV-2 virusi nafaqat tibbiyot, balki ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy tizimlarni ham silkitdi.

ULAR QAYERDAN PAYDO BO'LADI?

Olimlarning ta'kidlashicha, viruslar Yerdagi hayot paydo bo'lgan dastlabki milliard yillikda shakllangan. Ta'bir joiz bo'lsa, viruslar hayot bilan birga nafas olgan, tabiat bilan hamnafas rivojlangan. Ajablanarlisi, shunday viruslar bor ular inson salomatligiga tahdid solmaydi, balki dengizdagi bakteriyalarni yo'q

qiluvchi vazifasini bajaradi, ba'ziları esa inson organizmida kasallik keltirib chiqaradi. Bu esa shuni ko'rsatadiki, virus tabiatning bir qismidir va uni to'liq yo'q qilish mumkin emas. Uni faqat anglash, jilovlash va oldini olish mumkin.

QIZIQARLI VOQELIK

1995-yilda Alyaska muzliklaridan olib o'rganilgan 30 ming yillik viruslar tirik ekani va laboratoriya sharoitida faollik ko'rsatishi isbotlangan. Bu viruslar hozirgi viruslardan mutlaqo farq qilardi. Demak, yerda inson tajribasidan uzoq bo'lgan hali minglab xatarlar mavjud.

VIRUS QANDAY TARQALADI VA INSON HAYOTIGA QANDAY TA'SIR QILADI?

Viruslar turli yo'llar orqali yuqadi: havo-tomchi (*yo'tal, aksa urish*), teri orqali, og'iz, ko'z, burun shilimshiqi orqali, biologik suyuqliklar (*qon, so'lak, sperma*) orqali va hatto go'sht, sut kabi mahsulotlar orqali ham. Ular organizmga kirgach, hujayra ichida o'zining genetik ma'lumotini joylashtirib, hujayrani "zavod"ga aylantiradi.

Inson organizmi esa bu "begona dastur"ga qarshi kurashish uchun immun tizimini qo'zg'atadi. Shunda harorat ko'tariladi, bezovtalik, og'riq, yo'tal, shamollash belgilari yuzaga keladi. Agar immunitet sust bo'lsa, virus g'alaba qozonadi.

Viruslar yuzasidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki: immunitet – insonning eng kuchli quroli. Tabiiy oziqlanish, jismoniy faollik, sog'lom uyqu va stressdan xoli hayot tarzi insonni ko'pgina viruslardan muhofaza etadi.

Aslida viruslar insoniyatga "Hech qachon sustkashlik qilma!" degan tabiatning ogohlantiruvchi signalidir. Ular insoniyatga faqat jabr yetkazuvchi emas, balki o'zini va hayotini qadrlashga o'rgatuvchi sinov ham. Esdan chiqarmaylik: viruslar kuchli, lekin odam undan-da kuchli.

VIRUS QURBONI VA IRODA KUCHI

Bemorlar hayotida shunday lahzalar bo'ladiki, eng og'ir damda ham iroda kuchi sabab o'lim yoqasidan qaytishadi. Hammamizga ma'lum koronavirus pandemiyasi davrida ko'plab insonlar hayot bilan o'lim orasidagi noyob sinovni boshdan kechirdi. Ularning ba'ziları taslim bo'ldi, ba'ziları esa hayot uchun kurashdi.

2020-yilning yoz oylarida Toshkentdagi yuqumli kasalliklar shifoxonasiga 42 yoshli ayol og'ir holatda qabul qilindi. Unda nafas yetishmovchiligi avj olgan, shifokorlar esa unga sun'iy nafas apparatini ulashgandi. Uning holati har kuni og'irlashar, bundan shifokorlar ham umidsiz alfozda vaziyatni kuzatardi.

Ayol har soatda farzandlarining ovozi ni eshitishni talab qilardi. **Har gal nafas olayotganida o'zini shunday ruhlantirardi:** "Men hali bolalarimni ko'raman. Men tirik qolaman. Men kurashaman!"

28 kun... qora soya kabi uzoq kechalar, beharakat tananing hayot uchun kurashi, va oxir-oqibat nurga yetishishi... Bu ayol nafaqat tuzaldi, balki hayotga to'laqonli qaytdi. Unga ko'ra, ayolning farzandlariga bo'lgan muhabbati va hayotga ishonchi dardiga davo bo'lgan.

Bu voqea inson ruhiyati, ishonch va irodaning viruslar kabi ko'rinmas dushman ustidan qilgan g'alabasining yaqqol dalili bo'la oladi.

QANDAY HIMOYALANAMIZ?

Shu o'rinda alohida ta'kidlash joizki, profilaktika har qanday virusga qarshi kurashning eng samarali vositasi sanaladi. Buni kasallikka chalingan million insonlar emas, kasallikdan sog'-salomat qolgan milliard insonlar tasdiqlaydi.

Demak, JSST va "The Lancet" jurnalida keltirilgan tavsiyalarga ko'ra, viruslardan himoyalaniş uchun:

- qo'llarni har 2 soatda sovunlab yuvish;
 - jamoat joylarida niqob taqish;
 - maxsus antiseptik vositalardan foydalanish;
 - mo'tadil uyqu, to'g'ri ovqatlanish, sport bilan shug'ullanish va ruhiy osoyishtalik;
 - immunitetni mustahkamlash.
- Buning uchun meva-sabzavotlar, S vitamini, jismoniy mashqlarni doimiy bajarish zarur.

QIZIQARLI MA'LUMOT

Ayollar erkaklarga nisbatan viruslarga ko'proq chidamli ekan. Bunga sabab ayollardagi ikki X xromosoma va ayrim immunitet genlarining yuqori faolligi. Buni Kanada, Finlyandiya va Janubiy Koreya olimlari tasdiqlagan.

OGOHI INSON – VIRUSDAN USTUN

Viruslar insonni zehn, iroda va ong jihatdan sinovdan o'tkazuvchi tabiiy imtihondir. Ulardan qo'rqish emas, anglash kerak. Ular hushyorlik, poklik, madaniyat va mas'uliyatga chorlaydi.

Mashhur virusolog Peter Pot aytadi: "Viruslar hech qachon o'lmaydi. Faqat aql bilan ularni jilovlash mumkin. Bu aql fan, madaniyat va insoniylikning qo'shilmasidir".

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, tabiatning bu sirli kodlari bilan kurashda har bir kishi o'zini himoya qilishni o'rganishi kerak. Bunday xatarlar davrida har bir ota-ona, har bir o'qituvchi, har bir jamoa virus haqida to'g'ri axborotga ega bo'lib, anglash va amal qilishda o'rnak bo'lishi zarur. Viruslardan qo'rqish emas, balki ularni tanib, oldindan chora ko'rish kerak. Unga qarshi kurashda biz faqat tibbiyotga emas, o'zimizning ongimizga ham tayanishimiz kerak.

Zotan, hayotga ongli yondashuv va sog'lom hayot tarziga amal qilish viruslardan kuchliroq himoya sanaladi. Unutmang, viruslar kuchli bo'lishi mumkin, ammo inson aqli va ma'naviy yetukligi bilan undan-da kuchliroq. Faqat hushyorlik va sog'lom turmush tarzi bu kurashda g'alaba kaliti bo'ladi.

G. XOJIMURODOVA tayyorladi.

Uchrashuv

MARDLIK VA FIDOYILIK SABOG'I

Yoshlar kelajagimiz, kelajak esa bizning bugungi mas'uliyatimiz sanaladi. Shunday ekan yosh avlodning Vatanga sadoqatli, mard, jasur va barkamol shaxs sifatida voyaga yetishi uchun nafaqat ota-onalar, balki butun jamiyat mas'ul.



Mudofaa vazirligiga qarashli Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanida joylashgan harbiy qismda o'tkazilgan uch avlod uchrashuvi ham ana shunday yuksak maqsad – yoshlar qalbida fidoyilik olovini yoqish, keksa avlodning hayot maktabi orqali ularning yurtparvarlik tuyg'usini mustahkamlashga qaratildi.

Respublika "Nuroni" jamg'armasi va tuman hokimligi hamkorligida tashkil etilgan mazkur uchrashuvda qo'mondonlik rahbariyati, tuman hokimi, nuroni ustozlar, harbiylar, faol yoshlar va jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.

Qalblar, tafakkurlar va tuyg'ular birligiga aylangan uchrashuv avvalida, dastlab mehmonlar harbiy qism hududida yaratilgan sharoitlar, millatlararo hamjihatlikka xizmat qiluvchi ekspozitsiyalar, yosh ijodkorlarning vatanparvarlik ruhida badiiy chiqishlari

bilan tanishdi. Harbiy xizmatchilar tomonidan namoyish etilgan qurol-aslahalar namoyishi, jangovar mashqlar va qo'ljangi harakatlari yoshlarda g'urur va milliy armiyamizga bo'lgan ishonchni yanada oshirdi.

Tadbir harbiy qism madaniyat markazida o'tkazilgan ochiq muloqotga ulandi. Unda so'zga chiqqanlar yoshlarda Vatan taqdiriga daxldorlik hissini yanada kuchaytirish, ularni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy armiyamizning o'rni va roli, yurt taqdiriga daxldorlik hissi, tinchlik qadri, armiya sharafi, Vatan muhabbati haqida so'z yuritdi. Tadbir davomida yoshlar o'zlarini qiziqtirgan savollarga keksalardan batafsil javob oldi.

Shahnoza SULTONOVA
TOQQQ matbuot xizmati

Aksiya

MEN



DONORMAN

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasida "Men donorman" shiori ostida xayriya qon topshirish aksiyasi tashkil etildi.



Dastavval shifokorlar tomonidan ishtirokchilarga qon topshirishning taomillari, afzalliklari, turli kasalliklarning oldini olishdagi ahamiyati va boshqa foydali xususiyatlari haqida tushunchalar berildi.

So'ngra tadbirga start berilib, gematologik, onkologematologik va boshqa og'ir xastalikka chalingan bolalarga tibbiy yordam ko'rsatish, bunday kasalliklar profilaktikasini kuchaytirish va ularni keltirib chiqaruvchi omillarning oldini olish, o'z navbatida, oliyanoblik, bag'rikenglik tuyg'ularini rag'batlantirish maqsadida harbiy prokuratura xodimlari donor sifatida qon topshirdi.

Faxr bilan aytish joizki, harbiy prokuror-tergov xodimlari ushbu xayriya aksiyasi orqali tibbiy-ijtimoiy ko'makka muhtoj insonlarni qo'llab-quvvatlash va ular salomatligini muhofaza etish yo'lida faol hissa qo'shdi.

Adliya podpolkovnigi
G'iyosiddin RAXMONOV,
O'zbekiston Respublikasi Harbiy
prokurorining yordamchisi

Tibbiy tekshiruv

IJTIMOIY
himoya

"Harbiy prokuratura – armiya prokuraturasi" shiori ostida olis hududlarda xizmat o'tayotgan harbiy ayollar, xodimlar, shuningdek harbiy xizmatchilarning rafiqalari va farzandlari uchun bepul chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rik tashkil etilmoqda.

Navbatdagi tadbirlar vodiyning So'x (Farg'ona), Jalaquduq (Andijon) va Pop (Namangan) tumanlarida tashkil etildi.

Jarayonda xotin-qizlar tor doiradagi tibbiyot mutaxassisleri jalb etilgan holda, ayollar orasida ko'p uchraydigan onkologik kasalliklarning oldini olish uchun maxsus tibbiy tekshiruvlardan bepul o'tkazildi.

Xususan, harbiy xizmatchilarning oila a'zolari, shu jumladan turmush o'rtog'i va farzandlaridan 500 nafardan ziyodi, shu bilan birga, harbiy ayollar, xodimlar, ularning oila a'zolari va hududdagi mahallalarda istiqomat qiluvchi xotin-qizlar zamonaviy jihozlangan ko'chma mobil laboratoriyada maxsus tekshiruvdan o'tdi va tor doiradagi mutaxassislik bo'yicha malakali shifokorlar qabulida bo'lib, tibbiy tavsiyalar oldi.

Adliya podpolkovnigi
Gulchehra TURSUNOVA,
O'zbekiston Respublikasi Harbiy
prokurorining katta yordamchisi

Qaror va ijro

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tomonidan Navoiy viloyatida o'rganishlar olib borildi.

SHAROITLAR
o'rganildi

Xususan, qator harbiy qism va muassasalarda xizmatni o'tash, amaliy va nazariy mashg'ulotlar o'tkazish sharoitlari, tibbiy va boshqa ta'minot turlari ahvoli hamda sohaga doir boshqa masalalar o'rganildi.

Energiya tejamkorligini ta'minlash, byudjet mablag'larini iqtisod qilish, shuningdek huquqbuzarliklarning oldini olish borasida amalga oshirilayotgan ishlar natijalariga e'tibor qaratildi.

Harbiy xizmatchilar va xodimlar bilan ochiq muloqotlar o'tkazilib, ularning fikr-mulohazalari o'rganildi.

Yakunda o'rganilgan masalalar yuzasidan mas'ullarga tegishli ko'rsatmalar berildi.

Adliya podpolkovnigi
Sanjar BAXRONOV,
Navoiy harbiy prokuraturasi
katta tergovchisi

Sayyor qabul

Farovonlik
SARI

Termiz harbiy prokuraturasi tomonidan tegishli mutasaddi tashkilotlar hamda harbiy qism va muassasalar qo'mondonliklari bilan hamkorlikda Sariosiyo tumanida ommaviy sayyor qabul o'tkazildi.

Unda soha mutaxassisleri jalb etilgan holda harbiy xizmatchilar, xodimlar va ularning oila a'zolari, pensionerlar va yoshlar tinglandi.

Jarayonda 18 ta murojaatdan 3 tasi joyida ijobiy hal etildi, 10 tasiga huquqiy tushuntirish berildi, 5 tasi nazoratga olindi.

Shuningdek, harbiy xizmatchilarning oila a'zolari va yoshlar, shu jumladan muddatli harbiy xizmatni o'tab qaytgan yigitlar uchun bo'sh ish o'rinlari mehnat yarmarkasi tashkil etildi.

Adliya katta leytenanti
Daler RAHMATILLAYEV,
Termiz harbiy prokurorining
yordamchisi

Bitiruv

Jamoat xavfsizligi universitetida tantanali bitiruv marosimi bo'lib o'tdi.

VATANGA
sadoqat

Unda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, Milliy gvardiya qo'mondonligi, Harbiy prokuratura, Qurolli Kuchlar tizimidagi vazirlik va idoralar vakillari, faxriylar, ommaviy axborot vositalari xodimlari, mehmonlar va ota-onalar hamda Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari ishtirok etdi.

So'z olganlar yosh ofitserlarga Vatanga sadoqat yo'lidagi xizmatlarida omad va zafarlar tiladi.

Bitiruvchilarga diplom va ko'krak nishoni topshirish tantanali marosimi yosh ofitserlar xotirasida manguga muhrlangan bo'lsa, ikkinchi tomondan ular qalbida milliy g'urur va iftixor hamda mas'uliyat hislarini yanada mustahkamladi.

Harbiy orkestr va kursantlarning ko'rgazmali chiqishlari barchada katta taassurot qoldirdi.

Adliya podpolkovnigi
Nodir ALIMOV,
Toshkent harbiy prokurorining
katta yordamchisi

Xavfli illat

GIYOHVANDLIKKA

QARSHIMIZ

Mudofaa vazirligiga qarashli Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanidagi tog' yon-bag'rida joylashgan "Tong" bolalar sog'lomlashtirish oromgohida Xalqaro giyohvandlikka qarshi kurash kuni munosabati bilan tadbir o'tkazildi.



Unda yosh avlodga giyohvandlikka, giyohvand moddalar iste'moli va oldi-sotdisiga qarshi immunitetni mustahkamlashga qaratilgan ma'ruzalar, turli qisqa metrajli filmlar va sahna ko'rinishlari namoyish etildi.

Tadbirda dunyoning ko'plab mamlakatlarida Xalqaro giyohvandlik va giyohvand moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurash kuni keng nishonlanishi qayd etildi. Giyohvandlik muammosiga qarshi kurashish, uning salbiy oqibatlarini kamaytirish uchun nafaqat davlatlar, xalqaro

tashkilotlar, balki butun jamiyat birgalikda harakat qilishi va bu ishga har bir inson o'z hissasini qo'shishi lozimligi ta'kidlandi.

Shu kuni oromgohda yozgi ta'tilni maroqli o'tkazayotgan bolajonlar ishtirokida "Biz giyohvandlikka qarshimiz" mavzusidagi rasmlar ko'rgazmasi bo'lib o'tdi. Tadbirda Qurolli Kuchlar Markaziy ashula va raqs ansambli hamda taniqli san'at ustalarining chiqishlari namoyish etildi. Tadbir so'ngida rasmlar ko'rgazmasida g'olib va sovrindor bo'lgan bolajonlar taqdirlandi.

O'z muxbirimiz

Dolzarb 90 kun

MA'NAVIYAT
KARVONI

Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan yo'lga qo'yilgan "Dolzarb 90 kun" loyihasi doirasida vazirlik va idoralar kesimida bolalar hamda mahallalardagi 18 yoshgacha bo'lgan yoshlarda Vatanga sadoqat, yuksak vatanparvarlik ruhini shakllantirish, sportga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga qaratilgan qator tadbirlar tashkil etilmoqda.

Mudofaa vazirligi tasarrufidagi garnizonlarda joylashgan harbiy qismlarda mazkur vazifalarni yuqori saviyada, sifatli va uyushqoqlik bilan amalga oshirish maqsadida chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqilgan bo'lib, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyati va boshqa tashkilotlar hamkorligida tashkil etilgan "Tamaddun, madaniyat va ma'rifat" mavzusidagi "Ma'rifat karvoni" ilmiy-ma'rifiy va madaniy targ'ibot tadbirlari ayni yo'nalishga hamohangdir.

Xususan, Toshkent harbiy okrugi Chirchiq garnizonidagi harbiy qismda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi hamda O'zbekiston yoshlar ittifoqi viloyat kengashi bilan hamkorlikda madaniy-ma'rifiy, ijodiy uchrashuvlar va konsert dasturlari tashkil etildi. Tadbirda Respublika ma'naviyat va ma'rifat targ'ibot guruhi, O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi vakillari, san'at va madaniyat sohasi namoyandalari harbiy xizmatchilar va yoshlar qalbida Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'ularini kamol toptirish, bugungi tinch va erkin hayotni qadrlab, shukronalik tuyg'usi bilan yashash, inson qadrini ulug'lashga da'vat etish yuzasidan o'z fikrlarini bildirib o'tdilar.

Tadbir davomida teatr va kino aktrisalari Saidara Rametova va Shohida Uzoqova ijro etgan Vatanni hamda tinchlikni madh etuvchi sahna chiqishlari harbiy xizmatchilarga o'zgacha zavq bag'ishladi. Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurtida "Ma'rifat karvoni" doirasida o'tkazilgan "Tirik tarix" loyihasi buyuk ajdodlarimizning

madaniy merosini keng targ'ib etish, ijtimoiy faollik ko'nikmalarini kuchaytirishga xizmat qildi. Unda elimizning suyuqli kinoijodkorlari, madaniyat xodimlari, shoirlarining harbiylar bilan uchrashuvi tashkil etildi.

Jizzax garnizonidagi harbiy qismda "Tirik tarix" loyihasi doirasida taniqli kino ijodkorlar va elimiz suygan san'atkorlar ishtirokida mazmunli uchrashuv va "Kinokarvon" loyihasi o'tkazilgan bo'lsa, Jarqo'rg'on tumani Kakaydi qo'rg'onidagi harbiy qismda "Bir maqsad" loyihasi orqali "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyati a'zolari yosh ofitserlar va serjantlar bilan jonli muloqot qildi. Loyiha so'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatini targ'ib etish, yurtida daxldorlik xislatlarini namoyon qilish kabi maqsadlarni qamrab oldi.

Shirin shahridagi harbiy qismda esa "O'zbek qizi" va "Uy" nomli tarbiyaviy ahamiyatga ega animatsion film namoyish etildi. Milliy kinofilmlar namoyishi, kino ijodkorlar bilan jonli muloqotlar harbiy xizmatchilarda katta taassurot qoldirdi. Bir so'z bilan aytganda, olimlar, taniqli san'atkor va shoirlar bilan uchrashuvlar yurtimiz posbonlari va oila a'zolariga birdek manzur bo'lib, ertangi kunga ishonchi, katta maqsadlar sari intilishi yanada mustahkamlandi.

Jaloliddin YUSUBOV,
O'zMU dotsenti, falsafa fanlari doktori,
"Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyati a'zosi

Ogohlik

YONG'INDAN XABAR BERISH MOSLAMALARIDAN
FOYDALANISH TARTIBINI BILASIZMI?

Qadimda insonlar sodir bo'lgan hodisalar to'g'risida uzoq masofadan bir-birini bong urish, alanga yoqish orqali ogohlantirgan. Zamonaviy hayotda masofadan ogohlantirish maqsadida turli xildagi nazorat qiluvchi moslamalardan foydalanilmoqda.

Yong'indan xabar beruvchi moslamalar harbiy qism va muassasalardagi ombor, xizmat xonalari, ishlab chiqarish korxonalari va boshqa yong'inga xavfli bo'lgan binolarda yong'in xavfsizligini ta'minlash kabi muhim vazifani bajaradi.

Yong'indan xabar beruvchi moslamalar binolarda favqulodda yong'in sodir bo'lganda, yong'inni tezda bartaraf etish, binodagi shaxsiy tarkib, buyum va jihozlarni xavfsiz joyga evakuatsiya etilishida tezkor choralar ko'rish uchun ogohlantiradi.

Yong'indan xabar beruvchi uskunalar, ularning ko'rinishi va hajmidan qat'i nazar quyidagi moslamalardan iborat:

1. Ogohlantiruvchi moslama – bu bino ichida yuqori issiqlik yoki tutun hosil bo'lganda yuqori sezuvchanlik xususiyatiga ega hisoblanib, binoda yuqori darajadagi issiqlik yoki tutun hosil bo'lgani to'g'risida nazorat-qabul qilish moslamasiga signal yuboradi.

2. Nazorat-qabul qilish moslamasi (PPSU) – ogohlantiruvchi moslamalardan kelgan signalni qabul qilib, moslamada o'rnatilgan ko'rsatkich kalitlar orqali



qaysi binoda (xonada) yong'in sodir bo'lganligi to'g'risida ovoqli signal orqali navbatchilarni ogohlantiradi.

3. Yong'in haqida ogohlantiruvchi signal (IPR) – navbatchilar, o'z navbatida, sodir bo'lgan yong'in to'g'risida yong'in haqida ogohlantiruvchi signal yoki aloqa vositasi orqali yong'in o'chirish bo'linmalari va shaxsiy tarkibga belgilangan tartibda yong'in sodir bo'lgani to'g'risida xabar beradi.

Buyruq asosida yong'indan xabar beruvchi moslamalardan to'g'ri

foydalanish va texnik xizmat ko'rsatish maqsadida mas'ul shaxslar tayinlanadi.

Yong'indan xabar beruvchi moslamalarning tizimini asossiz ravishda o'chirib qo'yish, ularni o'zgartirish, moslama (datchik)larni o'zboshimchalik bilan o'rini almashtirish taqiqlanadi.

Sutkalik navbatchilar yong'indan xabar beruvchi moslamalarning sozligini doimo nazorat qilish, favqulodda yong'in sodir bo'lganda yong'in joyiga zudlik bilan yong'in o'chirish bo'linmasini chaqirish, signalni qabul qilish pultidagi kalit qaysi bino (xona)dagi yong'in moslama (datchik)ga tegishli ekanini bilishga majbur.

Yong'indan xabar beruvchi moslamalariga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlarini olib borish maqsadida moslamalar vaqtinchalik o'chirilganda bu to'g'risida binoga mas'ul shaxs tomonidan harbiy qism uy-joydan foydalanish xizmati boshlig'i va yong'in o'chirish bo'linmasi ogohlantirilishi lozim.

Podpolkovnik P. BOYQO'ZIYEV,
Samarqand garnizoni yong'in nazorati
inspeksiyasi boshlig'i

Mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotlarida

Bugungi kunda yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol qilib tarbiyalash, ularga zamonaviy bilim berish va kelajak uchun zarur mutaxassislar etib voyaga yetkazish muhim vazifalardan biridir. Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarga baholi qudrat hissa qo'shib kelayotgan O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining Sirdaryo viloyati kengashi va uning tasarrufidagi tuman, shahar o'quv sport-texnika klublarida ham bu borada muayyan natijalarga erishilyapti.



AMALIY HAMKORLIK

ASOSLARIDA



Xususan, ayni paytda amaldagi qonunchilik hamda tashkilot nizomi asosida yoshlarni ma'naviy va harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ommaviy kasb xodimlarini tayyorlash, shuningdek, sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish sohalarida samarali ishlar amalga oshirilmoqda.

Bu haqda tashkilotning viloyat kengashi raisi Ulug'bek Imamqulov quyidagilarni gapirib berdi:

Tashkilotimizda ma'naviyat va harbiy-vatanparvarlik targ'iboti yo'nalishi bo'yicha belgilangan davlat dasturlari asosida hamkor tashkilotlar bilan ham jismonan, ham ma'nan sog'lom, har tomonlama yetuk avlodni tarbiyalash, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, yoshlarni turli salbiy ta'sirlardan asrash va sportni umumxalq harakatiga aylantirish, uyushmagan yoshlarni sport seksiya va to'garaklarga jalb qilish yuzasidan tizimli ishlar amalga oshirildi. Chunki yoshlarimizni ona Vatanga sadoqat va muhabbat ruhida tarbiyalash hukumatimiz siyosatining muhim yo'nalishlaridan biridir.

Ayni paytda "Vatanparvar" tashkiloti Sirdaryo viloyati kengashi tasarrufida o'nta sport-texnika klubi va viloyat texnik va amaliy sport turlari markazi faoliyat ko'rsatmoqda. O'tgan davr mobaynida o'quv tashkilotlarining moddiy negizini takomillashtirish maqsadida, nazariy va o'quv-amaliy xonalari to'liq ta'mirlandi. O'quv elektron darsliklardan foydalanishda kompyuter va videoprojektorlar jamlamasi bilan butlandi. Avtodrom zamonaviy talablar asosida barpo etildi. Zamonaviy rusumdagi yengil va yuk o'quv-mashq avtomobillari hamda mototsikllar olib kelindi. Shuningdek, amaliy boshqarishni o'rgatishda avtotrenajyorlardan unumli foydalanilmoqda. Bu kabi sa'y-harakatlar natijasida ommaviy kasbdagi mutaxassislarini tayyorlash jarayoni ko'ngildagidek olib borilmoqda.

Tashkilot tizimidagi o'quv muassasalarida "A", "B", "BC", "BE", "CE" hamda "D" toifali haydovchilar, traktorchilar, shuningdek "Texnik xizmat ko'rsatish mutaxassislarini tayyorlash kurslari" tashkil etilib, vulkanizatorchi, gaz-elektropayvandchi, avtochilangar hamda avtoelektrik va boshqa mutaxassislar tayyorlanmoqda.

O'z navbatida, haydovchilar malakasini oshirish va qayta tayyorlash kurslari ham faoliyat ko'rsatmoqda.

Xo'jalik faoliyatidan olingan foyda tashkilot nizomida belgilangan maqsadlar uchun ishlatiladi. Jumladan, mablag'ning asosiy qismi o'quv muassasalari moddiy negizini yangilash hamda takomillashtirish, keng xalq ommasi, ayniqsa, yoshlar o'rtasida harbiy-vatanparvarlik targ'iboti ishlarini olib borish, sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirishga yo'naltiriladi.

Har yili sportning texnik va amaliy turlari bo'yicha respublika, viloyat va tuman musobaqalari o'tkazilmoqda. Shuningdek, tashkilot markaziy kengashi raisi kubogi uchun "Shunqorlar" harbiy sport o'yinlari ham tobora ommalashib bormoqda. Albatta, mazkur musobaqalar yosh avlod qalbida vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish, ularni ona Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash kabi maqsadlarga qaratilgani bilan ham ahamiyatlidir.

Bundan tashqari, viloyat kengashi va uning joylardagi tashkilotlari harbiy xizmatchilar chaqiruvga qadar bo'lgan yoshlar o'rtasida harbiy-vatanparvarlik, ma'naviy-axloqiy tarbiyani yuqori saviyada tashkil etish hamda uni

amalga oshirish borasida maktab, maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamda o'quv yurtlarida targ'ibot-tashviqot yuritish kabi tadbirlar ham tashkilotning diqqat markazida bo'ldi. Jumladan, joriy yilning shu davrigacha ikki yuzga yaqin tadbir o'tkazildi. Bu tadbirlarda 15 500 nafar aholi va yoshlar ishtirok etdi.

Belgilangan rejaga ko'ra, joylarda viloyat hokimligi, harbiy qismlar, mudofaa ishlari, Milliy gvardiya boshqarmalari, Yoshlar ishlari agentligi hamda Ma'naviyat va targ'ibot markazi hududiy bo'limlari bilan hamkorlikda bir qator uchrashuvlar, davra suhbatlari tashkil etildi. Xususan, "Yangi O'zbekiston armiyasi - mamlakat tayanchi, xalqimiz faxri", "Yangi O'zbekiston yoshlari, birlashaylik!", "Uch avlod uchrashuvi", "Men ham askar bo'laman!", Harbiy qismda bir kun", "Mening oilam sportchi", "Vatanparvar - mening tanlovim!", "Kasbim - mening faxrim!", "Vatan ravnaqi, tinchligi va himoyasi yo'lidagi qahramonlik unutilmaydi!" kabi mavzulardagi tadbirlar shular jumlasidandir. Albatta, bunday

dolzarb mavzularda tashkil etilgan davra suhbatlari va uchrashuvlar yoshlarimizning ma'naviy kamolotida muhim burilish yasamoqda, desak aslo mubolag'a bo'lmaydi. Ayniqsa, "Yoshlar oyligi" doirasida o'tkazilgan ma'naviy-ma'rifiy va sport tadbirlari yanada salmoqli bo'ldi.



Shuningdek, ayni kunlarda viloyatda texnik va amaliy sport turlarini rivojlantirish va ommalashtirish borasida o'quv sport-texnika klublari huzurida faoliyat yuritayotgan sport to'garaklari va seksiyalarining o'rni beqiyos. Bugungi kunda mavjud 24 ta to'garak va seksiyalarda 10 nafar sport murabbiyi faoliyat ko'rsatmoqda. 264 nafar shug'ullanuvchining 203 nafari o'g'il bola, 61 nafari qiz bola tashkil etadi. Ular sportning "Havo multig'idan o'q otish", "Yozgi biatlon", "Duatlon", "Triatlon", "Modelsozlik", "Raketamodel", "Aviamodel", "Erkin uchuvchi aviamodel", "Karting", "Avtoralli", "Motosport", "Parashyut", "Harbiy amaliy ko'pkurash" turlari bo'yicha muntazam shug'ullanib boradi. Tuman, viloyat hamda respublika miqyosida o'tkazilayotgan musobaqalarda faol ishtirok etgan sportchilarimiz sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritmoqda.

"Vatanparvar" tashkiloti o'z oldiga qo'ygan barcha maqsadlarni amalga oshirishda turli davlat va jamoat tashkilotlari bilan amaliy hamkorlikni yo'lga qo'ygan. Shu o'rinda "Vatanparvar" gazetasining hamkorlik doirasidagi darajasi va uning tashkilotimiz faoliyatiga qo'shayotgan hissasi haqida aytib o'tish lozim. Gazeta sahifalarida chop etilayotgan maqolalar mazmunli va dolzarbligi bilan tahsinga sazovordir. Mamlakatimiz Qurolli Kuchlarida amalga oshirilayotgan islohotlar, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasidagi targ'ibot ishlariga doir yangi ma'lumotlar xodimlarimiz uchun qo'llanma vazifasini o'tamoqda. Shuning uchun gazetaga obuna bo'lish tashkilotimiz va xodimlarimiz orasida yildan yilga ortib bormoqda.

Fursatdan foydalanib, "Vatanparvar" gazetasi tashkil etilganining 33 yilligi munosabati bilan uning ijodkorlarini "Vatanparvar" tashkilotidagi ko'p sonli muxlislari nomidan samimiy muborakbod etamiz, jamoaning ishlarida ulkan muvaffaqiyatlar tilaymiz. Amaliy hamkorligimiz bardavom bo'lsin!

Akbar ALLAMURODOV

Qahramonlar nomi barhayot

Narimon monolog

Harbiy uchuvchi katta leytenant Nariman Abkelyamov 2000-yili Surxondaryo viloyatining tog'li hududlaridan Vatanimiz sarhadlariga suqilib kirgan xalqaro terrorchi to'dalarga qarshi kechgan janglarda mardlik ko'rsatib, qahramonlarcha halok bo'lgan. U umrining so'nggi lahzasigacha dushmanga qarshi ayovsiz kurashib, quroldosh do'stlariga namuna bo'ldi. Uning yodi hech qachon o'chmagay!



Dadaxon MUHAMMADIYEV,
O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi a'zosi

Ammo borman yodingda,
Senga mangu yetganman.
O'lmaganman, sevgilim,
Men safarga ketganman.

Pahlavonim, o'ksima
Men yodingga tushgan payt.
Avval Vatan degin-u
So'ng otangning ismin ayt.

Yurt deb ko'ksing tog' bo'lar,
El mehriga tushgaysan.
Mendan baxtli bo'larsan,
Mendan baland uchgaysan.

Men hamon parvozdaman,
Uchib borayotirman.
Bir shoirning so'ziga
Ko'chib borayotirman.

Tog'larda qor ko'chyapti,
Keshga sovuq tushgandir.
Ona, har tong sog'inib
Kipriklaring uchgandir.

Tiriksan, deb alqagay
Anov toshlar, maysalar.
Men shunda yashaydirman,
Hurlik kuyin chalsalar,
Og'riq bermas zarracha
Ko'ksimdagi nayzalar.

Men shu tuproq bag'rida
Jo'shib-jo'shib yasharman.
Shu Vatanning ishqida
Oshiq bo'lib yasharman.
Ozod elning tilida
Qo'shiq bo'lib yasharman.



Keshdan uchgan sor burgut,
Surxonda qilar parvoz.
Ota, men shu burgutga
Ergashib kelganim rost.

Har qush o'zi tug'ilgan
Uyasin qo'riganday
Vatan chorlab turganda
Jonni tikmayin qanday?

Ona, ortiq yig'lama,
Parvozimni burch bildim.
Bir qush bo'lib yoningga
Rizolik so'rab keldim.

Bunda qancha mardlarim
Tuproq bo'lib jim yotar.
Shu fido jonlar haqqi
Nurafshon tonglar otar.

Ta'liming oldim, ota,
Mard bo'l, deding mard bo'ldim.
Ammo so'nggi lahzada
Senga bitmas dard bo'ldim.

Vatanning har gardiga
Jonimni to'shab keldim.
Osmon bo'lib ketdim-u
Tuproqqa o'xshab keldim.

Sevgilim, so'nggi lahza
Diydoringni ko'rmadim.
Men qaytmadim yoningga,
Men... so'zimda turmadim.



VATANPARVAR



MUASSIS
O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
MUDOFAA
VAZIRLIGI

www.mudofaa.uz

Tahririyat kengashi:
general-mayor Hamdam Qarshiyev
polkovnik Otabek Yuldashev
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin. Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – "Vatanparvar" birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Bosh muharrir:
podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Telefonlar:
kotibiyat: 55 511-25-90
buxgalteriya: 55 511-25-76
yuridik bo'lim: 55 511-25-72

Navbatchi: kapitan Bobur Elmurodov
Sahifalovchi: Dilnoza Meliqo'ziyeva
Musahhih: Zebo Sariyeva

Buyurtma: V-5984
Hajmi: 6 bosma taboq
Bichimi: A3
Adadi: 32 272 nusxa
Bosishga topshirish vaqti: 14:00
Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "O'zbekiston" NMIU mas'ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.
Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqib boshlagan.

Nashr ko'rsatkichi: 114.
Bahosi: kelishilgan narxda.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Sag'bon ko'chasi, 382-uy.

t.me/mv_vatanparvar_uz
t.me/mudofaavazirligi

www.mv-vatanparvar.uz
vatanparvar-bt@umail.uz

mudofaavazirligi

mudofaavazirligi

www.youtube.com/c/UzArmiya